

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OR`TA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida
UDK 398.2.

RUSTAMOVA GAVHAR BAHRON QIZI

**O`ZBEK XALQ QO`SHIQLARIDA MIFOLOGIK QARASHLARNING
IZLARI**

5A220101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyotshunosligi)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori O`rayeva Darmon Saidaxmedovna

BUXORO – 2018

MUNDARIJA

Kirish.....3-9

I BOB. MIFOLOGIK QARASHLAR TIZIMI VA ULARNING KELIB CHIQISH ILDIZLARI.....10-31

I.1. Mifologik qarashlarning turlari va genezisi.....10-17
I.2. Marosim va udumlarda animizm, totemizm, magizm va fetishizmga ishonch ifodasi.....18-30
Bob yuzasidan xulosalar.....30-31

II BOB. O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA ANIMIZM VA FETISHIZMGA ISHONCH IZLARI.....32-46

II.1. Xalq qo'shiqlarida animistik ham fetishistik qarashlar izlarining ifodasi.....32-40
II.2. Xalq qo'shiqlarida magiyaga ishonch izlarining badiiy ifodasi.....41-45
Bob yuzasidan xulosalar.....45

III BOB. XALQ QO'SHIQLARIDA TOTEMIZMGA ISHONCHNING BADIY TALQINI.....46-73

III.1. Xalq qo'shiqlarida daraxtlar obrazi.....46-68
III.2. Xalq qo'shiqlarida hayvonlar, qushlar obrazi.....68-73
Bob yuzasidan xulosalar.....74

Umumiy xulosalar.....75-77

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....78-83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Folklor xalq badiiy madaniyatining asosi va tarkibiy qismidir. Xalq durdonalari ma'naviyatning tarixiy asoslari va zamini bo'lishi bilan birga uning bugungi holatini yanada boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbayi hamdir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat yetukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma'naviy dunyosi boyligini ta'minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folkloarning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi va vorisligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog`langani tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa, yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni toplash, o'rganish va nashr etish hamisha dolzarb vazifa bo'lib kelgan.

Ajdodlarimizdan bizga behad ko'p, ta'sirchan, badiiy yuksak folklor asarlari meros bo'lib qolgan. Afsuski, ulardan ko'pchiligi o'z vaqtida yozib olinmagani uchun unutila boshlandi. Xayriyatki, istiqlol yillarda tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vat tufayli xalq asarlarini to'plashga va o'rganishga nisbatan e'tibor kuchaytirildi. Boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o'ziga singdirib, mukammal badiiy tizim sifatida shakllangan folklor asarlari tarkibida mifologik qarashlar alohida o'ringa ega. Ular, avvalo, xalqimizning mifologik qarashlariga aloqador qadimiy tasavvur-tushunchalari, animistik, ya'ni jon va ruhlar bilan bog'liq, fetishistik, ya'ni narsa-buyumlar bilan bog'liq inonchlar, totemistik qarashlar, jumladan, daraxtlar, gullar, shuningdek, hayvon va hasharotlar, qush va parrandalarga oid e'tiqodiy qarashlar, qadimgi insonlarning turmush tarzi, o'tmish madaniyati haqida muayyan badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Qolaversa, ular haqidagi ilmiy ma'lumotlar hozirgi yosh avlodga ajdodlarimizning boy madaniy tarixini o'rgatishda, ularning tarbiyasiga ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatib,

qalbida xalq an'analariga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda qulay vosita bo'lib xizmat qila oladi. Ajdodlarimiz e'tiqodi bilan bog`liq bunday an'anaviy obrazlarni tadqiq va targ`ib qilish orqali millatimiz ma'naviyati va madaniyatni tarixiga oid ko'pgina ma'lumotlarni bilib olish ham mumkin. Ezgu g`oyalar bilan sug`orilgan xalq asarlari barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Haqiqatan ham milliy qadriyatlarimiz barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtiradi, ularning qalbida eng go'zal va olijanob tuyg'ularni uyg'otadi".¹ Qolaversa, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda ".....ilmiy tadqiqot va innovastiya faoliyatini rag`batlantirish, ilmiy hamda innovastiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"² lozimdir. Shunday ekan, asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan folklor namunalarini hamda ular tubiga yashiringan purhikmat g`oyalarni, turli e'tiqodiy qarashlarni ham to'plash va o'rghanish folklorshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Ushbu magistrlik dissertasiyasini mavzusining dolzarbliji yana shu bilan belgilanadiki, unda o'zbek folklorshunosligida birinchi marta animistik, totemistik, magik hamda fetishistik qarashlar asosida kelib chiqqan obrazlarning xalq qo'shiqlaridagi o'rni, obrazlantirilish ko'rinishlari, bunday mifologik qarashlarning kelib chiqish ildizlari, arxaik marosimlar orqali avval xalq epik asarlariga, keyin esa xalq lirikasiga ko'chish tamoyillari yaxlit tarzda ilmiy jihatdan o'rghanilmoqda.

Qolaversa, hozirgi ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj folklorshunoslardan qadimiylar obrazlarning genezisini chuqurroq va keng qamrovda o'rghanishni taqozo etmoqda. Negaki, ular ham o'ziga xos epik tafakkur mahsuli bo'lib, bag`rida xalq og`zaki ijodi asarlarida badiiy talqin etiluvchi g`oyalarni, xususan, qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarni ifodalab kelishi jihatidan e'tiborni tortadi. Shu vajdan xalqimiz turmushiga va ruhiyatiga chuqur singib ketgan qo'shiqlarni o'rghanish

¹ Мирзиёев Ш.М. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdag'i ma'rufasi. – "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. – 2017 yil, 4 avgust. – №32 (4431). – B.1-4.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль. – № 28.

g`oyat dolzarb bo`lib, ilmiy-amaliy qimmat kasb etadi. Shuni inobatga olib, mazkur dissertastiyada o`zbek xalqining mifologik qarashlari genezisini va folklor asarlaridagi badiiy talqinini tadqiq qilish ko`zda tutildi.

O`zbek xalq og`zaki ijodida keyingi yillarda mifologik tasavvurlar va magik ramziy obrazlarni o`rganishga bir qadar qiziqish kuchaygani sezilarli samara bermoqda. Ayniqsa, ularning qo`shiqlar tarkibiga singish asoslarini o`rganishga, an'anaviylik, turg`unlik kasb etish sabablarini oydinlashtirishga qiziqish kuchaygandan kuchaymoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldaggi PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ`ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7-oktyabrdagi VMQ №222-son «2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ`ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to`g`risida»gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertastiya tadqiqtasi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning o`rganilish darjasи. Ma'lum bir reliktlarga ishonch animistik yo totemistik tushunchalar tizimining mustaqil bosqichini tashkil etadi. Hatto bu o`zbek folklori namunalarida ham o`ziga xos talqin etilganligi kuzatiladi. Jumladan, folklor asarlarida daraxt, hayvon, qush, narsa-hodisa obrazlariga aloqador totemistik qarashlar talqini ham alohida o`ringa ega. Avvalo, u yoki bu totemga yoki predmetga e'tiqodiy munosabat xalq marosimlarida kuzatiladi. Keyinchalik bu marosim qo`shiqlarida ko`zga tashlanadi. Biroq o`zbek folklorshunosligida bu muammo haligacha maxsus tadqiq qilinmagan.

Mifologiya bilan aloqador xalq e'tiqodiy qarashlari islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Unga aloqador dastlabki ilmiy qarashlar, etnografik ma'lumotlar taniqli elshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan. Jumladan, ibridoiy insonlarning mifologik inonchlarini o'rgangan

E.Taylor, J.Frezer, D.Zelenin, V.Ya. Propp, S.A. Tokarev, A.F. Losev³ singari taniqli olimlar animizm, totemizm, magiya va fetishizm bilan bog`liq xalq e`tiqodlarini, tasavvur-tushunchalarini, jon va ruhlar, hayvonot va nabotot olami kultiga oid qarashlarni alohida e`tirof etib o`tganlar. O`zbek folklorshunosligida esa bu masala hali alohida tadqiq obyektiga aylantirilmagan. Biroq o`zbek folklorshunosligida mifologik qarashlar bilan bog`liq tushunchalarga ayrim izohlar M.Alaviya, T.Mirzayev, K.Imomov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Ro`zimboyev, M.Jo`rayev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, D.O`rayeva, M.Rahmonova, Z.Rasulova kabi folklorshunoslarning kitob va maqolalarida uchraydi. Jumladan, Muzayyana Alaviyaning “O`zbek xalq qo’shiqlari”, “O`zbek xalq marosim qo’shiqlari”, Bahodir Sarimsoqovning “O`zbek marosim folklori”, Asqar Musaqulovning “O`zbek xalq lirikasi”, Darmonoy O`rayevaning “O`zbek motam marosimi folklori” monografiyalarida, Shomirza Turdimovning “O`zbek xalq lirik qo’shiqlarida poetik ramzlar” mavzusidagi nomzodlik ishida, Safarboy Ro`zimboyev hamda Darmonoy O`rayevaning o`zbek xalq lirik qo’shiqlarida parallelizmni hosil qiluvchi qiyosiy manbalar xususidagi ilmiy maqolalarida tadqiqot mavzuyimizga daxldor ayrim fikr-mulohazalarning ilgari surilganiga guvoh bo’lish mumkin.⁴

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, o’zbek folklorshunosligida xalq qo’shiqlarida mifologik qarashlarning badiiy ifodasiga xos xususiyatlar, uning

³ Тайлер Э. Первобытная культура. – Москва: Политиздат, 1990; Фрезер Ж. Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928; Зеленин Д. Тотемы – деревья в сказаниях и обрядах европейских народов. – М.– Л., 1937. – 77 с.; Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: Наука, 1946; Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛ, 1990. – С.245; Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: ИПЛ, 1991.

⁴ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиклари. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 316 б.; яна: Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиклари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.; Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б, Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 306 б.; Рўзимбоев С. Идейно-художественные особенности узбекских народных песен Хорезмского оазиса: Афтореф. дисс...канд. филол. наук. – Т., 1971. – С.24-25; яна: Рўзимбоев С. Халқ қўшикларида параллелизмни юзага келтирувчи манбалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1972. – №1. – Б.81-85; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.; Мусакулов А. Магик ишонч-иримлар реликтларининг халқ лирикасидаги поэтик қўринишлари / Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.99; Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сехрли” ракамлар. – Т.: Фан, 1993; Турдимов Ш. Лирик қўшикларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1982. – №3. – Б.16-19; Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 199-205; Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 132 б.; Миф, афсона ва талқин. – Навоий, 2015. – 102 б.; Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2014. – 308 б.

kelib chiqish ildizlari, ramziy-timsoliy mohiyati maxsus tadqiq etilmagan. Ayniqsa, bunda obrazlantirilayotgan animistik va totemistik obrazlar turlarini, har biriga xos ramziy-timsoliy ma'nolarni aniqlash dolzARB va muhim muammolardan biridir.

Umuman aytganda, respublikamiz mustaqillikka erishgach, ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri bo'lmish folklor asarlarini o'rganishga nisbatan ilmiy qiziqish yanada kuchaydi. Shu qiziqish asosida o'z dissertasiyamizda mifologik qarashlarning izlari aks etgan qo'shiqlar badiiyatini alohida o'rganishni maqsad qildik.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi. Tadqiqotda o'zbek xalq qo'shiqlarida uchraydigan mifologik qarashlarga aloqador tushunchalarning badiiy talqini, u bilan bog`liq obrazlarning turlari, genezisi, obrazlantirilish xususiyatlarni maxsus o'rganish bosh maqsad qilib belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

o'zbek folklorshunosligida mifologik qarashlarning o'rganilish tarixi bilan tanishgan holda uning kelib chiqish ildizlarini yoritish;

arxaik marosimlarda, udumlarda mifologik ishonchlar asosida shakllangan odatlarni aniqlash va tavsiflash, bu haqdagi mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish;

mifologik qarashlarning mazmuni, axloqiy-e'tiqodiy mohiyatini ochib berish hamda xalq madaniy turmush tarzida ularning urf-odatlar bilan bog`lanishini izohlash;

xalq qo'shiqlari badiiy strukturasidan o'rIN olgan mifologik qarashlar bilan aloqador obrazlarning turlarini tadqiq qilish, tasniflash va hokazo.

Magistrlik dissertatsiyasining manbasi. Ishni yozishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan jamlangan "O'zbek xalq qo'shiqlari", "Oq olma, qizil olma", "Gulyor", "Kelinoy qo'shiqlari", "Boychechak", "Oy oldida bir yulduz", shuningdek, Buxoro xalq qo'shiqlari asosida tartib berilgan "Buxor elda gul sayli" to'plamlaridan manba sifatida foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti. O'zbek xalq qo'shiqlarida mifologik qarashlar bilan bog liq obrazlar tasviri va talqini tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Magistrlik dissertastiysi ilmiy yangiligi:

o'zbek folklorshunosligida mifologiya bilan aloqador xalq qarashlarining mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixiy ildizlari, obrazlar tizimi va tarkibi, an'anaviyligi masalasi ushbu magistrlik dissertatsiyasida ilk bor alohida yaxlit tizim sifatida o'rganilayotgani uning asosiy ilmiy yangiligidir;

o'zbek xalq qo'shiqlarida mifologik qarashlarning izlari aks etgan ramziy-timsoliy obrazlarning tizimi va tarkibi, o'ziga xos badiiy tasviri va talqini birinchi marta ilmiy jihatdan chuqur o'rganildi;

mifologik qarashlarga ishonch asosida shakllangan an'anaviy marosimlar, ular bilan bog`liq urf-odatlar, e'tiqodiy qarashlar ifodasining xalq qo'shiqlari badiiy strukturasidagi o'rni ilk bor keng tadqiq qilindi;

o'zbek xalq qo'shiqlarida o'simlik, daraxt, gul, hayvon va hasharotlar, qush va parrandalar, kiyim-kechak va taqinchoqlar bilan bog`liq xalq e'tiqodiy qarashlarining obrazlantirilishi mif-marosim-folklor bosqichida kechganligi aniqlab berildi.

Ishda **qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy, qiyosiy-analitik, tasniflash va tavsiflash** metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek xalq qo'shiqlarida mifologiya bilan bog`liq xalq e'tiqodiy qarashlari va tushunchalarining, urf-odatlarning badiiy talqin etilishiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning kelib chiqish ildizlarini ochish, obrazlantirilishiga xos qirralarni asoslash uchun yaxlit tadqiqot holida amalga oshirilayotgan ushbu magistrlik dissertatsiyasining asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari mifologik qarashlar (masalan, animizm, totemizm, fetishizm, magiya kabilalar)ning, urf-odatlarning mohiyatini va an'anaviyligini, badiiy ifodasini qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi.

Chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek folklorshunosligida o'simlik, daraxt, gul, hayvon, hasharot, qush, parranda, kiyim-kechaklar turlarining har biri obrazlantirilishiga xos xususiyatlarni o'zaro taqqoslab o'rganishda, ular bilan bog`liq milliy urf-odatlarning badiiy tasviri va talqinini qiyoslab tadqiq etishda nazariy manba bo'lib xizmat qila oladi.

Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliv o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarida xalq og`zaki badiiy ijodiyoti, shuningdek, tarix va etnologiya fanlari bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, ma'ruzalar o'qishda, umumiy ta'lim tizimida folklor fanidan dars mashg`ulotlari olib borishda, uni o'qitish yuzasidan metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi va sinovdan o'tishi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetining O'zbek adabiyoti kafedrasи yig`ilishida muhokama etilib, himoyaga tavsiya qilingan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Ishning mazmuni bo'yicha Buxoro davlat universitetida 2016-2018 yillarda e'lon qilingan ilmiy to'plam va jurnallarda, o'tkazilgan professor-o'qituvchilarining va talaba-magistrlarning an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Ish yuzasidan 1 ilmiy risola va 3 maqola chop ettirildi. Bular:

1. O'zbek folklorida daraxtlar obrazi. – Buxoro, 2016. – 38 b.
2. O'zbek bolalar erkalamalarida hayvonlar obrazi / Filologiya masalalari. 11-juzv. – Toshkent: Navro'z, 2017. – B.123-126.
3. Fitrat she'rlarida gul obrazining talqinlari / "Istiqlol va Fitrat" mavzusidagi an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2017 yil, 6-7 aprel. – B. 51-53.
4. O'zbek xalq qo'shiqlarida terak obrazi / Tafakkur va talqin. – Buxoro, 2018. – B. 95-98.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. MIFOLOGIK QARASHLAR TIZIMI VA ULARNING KELIB

CHIQISH ILDIZLARI

I.1. Mifologik qarashlarning turlari va genezisi

Animizm – bu ibtidoiy insonning tabiat haqidagi qarashi, o’zini tabiatdagi narsalar: tabiat kuchlari va hodisalari, jonsiz predmetlar bilan aynan bir narsa deb hisoblashi, hamma narsalarni jonli deb bilishdan iborat tasavvurlari yig’indisidir. Animizm asosida jon va ruhning borligiga ishonch yotadi. Animistik tushuncha – tasavvurlarning qoldig’i «Yoriltosh», «Qilich botir», «Oqbilakxon» kabi ko’plab ertaklar tarkibida saqlanib qolgan. Chunonchi, «Yoriltosh»da toshning inson murojaatiga quloq tutib yorilishi mo’jizasi, «Qilich botir»da qahramonning joni tanasida emas, balki unga tegishli predmetda saqlanishi, “Oqbilakxon” ertagida esa yigitning toshga aylanib qolishi kabi motivlar bevosita animistik tushunchalar qoldig’idir.

Totemizm – odamning biror hayvon yoki o’simlik turi bilan o’zini qondosh deb bilishdan iborat ishonch-e’tiqodi tizimidir. Totem – u yoki urug`ning e’tiqod qo’yan himoyachisi hisoblanadi.

Turkiy xalqlar, jumladan, qadimgi ajdodlarimiz ot, ho’kiz, ilon, bo’ri, it kabi hayvonlarga, ayrim daraxt va o’simlik, qushlar va parrandalarga e’tiqod qo’yanlar. Shular orasida ot va bo’rini totem hayvon sifatida alohida e’zozlashgan. Totemlar bilan bog`liq bir qancha geneologik afsonalar ham mavjud. Ularda u yoki bu urug` – qabilaning kelib chiqishi ko’pincha ona bo’ri obraziga bog`lab talqin etiladi. Bo’ri totemiga aloqador ertaklar ham anchagina: «Cho’loq bo’ri», «Bo’ri qiz» kabi ertaklar shular jumlasidandir.

Qadimgi ajdodlarimiz o’z turmush-tirikchiligidagi otdan keng foydalanganlar. Ot ularga ham oziq, ham uzoqni yaqin qiluvchi ulov, ham chorvani boqishda ko’makdosh ish hayvoni sifatida xizmat ko’rsatgan. Hatto otning yolidan turli kasalliklarni davolashda foydalanilgan. Ot kalla suyagi yovuz ruhlardan himoya qiluvchi vosita hisoblangan. Otdan shunchalik katta naf ko’rgan qadimgi odam uni

kult darajasida ilohiyashtirib, e'tiqod timsoliga aylantirgan. Tabiiyki, bunga otning jozibadorligi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Ot kultiga aloqador qarashlar natijasida folklor asarlarida otning epik badiiy timsoli paydo bo'lgan. Jumladan, o'zbek xalq dostonlaridagi G`irot, G`irko'k, Boychibor, Jiyyronqush, Majnunko'k kabi epik ot obrazlari bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Ot kultiga aloqador urug` nomlari va geografik joy nomlari ham bor. Bu haqda «Hazorasp» nomli toponimik afsona yaratilganligi ma'lum.

Qadim zamonlardan buyon chorvachilik va dehqonchilik madaniyati yuksak darajada taraqqiy etgan tabarruk ona zaminimizda tabiatning boqiyligini ulug`lash, o'simlik va hayvonlar kulti bilan aloqador ko'pgina an'analar vujudga kelgan. Hayot daraxti haqidagi mifologik qarashlar zamirida ham tabiatning boqiyligi to'g`risidagi ibridoiy inonchlar yotadi. Ajdodlarimiz kuzda o'z yaproqlaridan judo bo'lgan dov-daraxtlarning erta ko'klamda yana barg yozishi, shuningdek, bahor kelishi bilan dala-qirlarning o't-o'lanlar, gul-chechaklar ila qoplanishida tabiatning ramziy ma'nodagi o'lib-tirilishi timsolini ko'rganlar.

Daraxtlar yilning har faslida har xil holatga kirishi va har bahorda qayta jonlanib barg yozishi arxaik dunyoqarashdagi evrilib va jonning ko'chib yurish g'oyasiga ham mos keladi. Darhaqiqat, qadimdan daraxtlarni inson umriga qiyos etishgan.

Daraxtlar kultining paydo bo'lishi ibridoiy madaniyat davri bilan bog'liq bo'lib, insoniyat, dinlar tarixi, marosimlari, urf-odatlari, dunyoqarashida muhim rol o'ynagan qadim inonchlarning ko'rinishlaridan biridir. Arxaik dunyoqarashda butun tabiat kabi daraxtlar ham jonli va ongli deb tushunilgan va ko'pgina xalqlar o'zlarining ilk ajdodlarini daraxtlar totemi bilan bog'lashgan.

Islom ta'limotida insonlar, jonivorlar kabi daraxt va o'simiklar ham jonli hisoblanadi. Bu jonnilarining yashash va ko'payish vositasi juftlik qonuniyatidir.⁵ O'simiklar va jonivorlar kultiga ishonch dastlab ularning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Chunki insoniyatning ilk ajdodlari termachilik va

⁵ Qur'oni karim. – B.4.

ovchilik bilan kun ko‘rishgan. Ajdodlarimiz o‘simlik va daraxtlarning hosili, davolash xususiyatlari, ayrimlarining zaharli – o‘ldirish xislatlarini ko’rib, ko‘plab daraxt va o‘simliklar ruhlarini kashf etganlar.

O‘simliklar kabi daraxtlar ham qadimda barcha xalqdarda jonli mavjudot deb tushunilgan. Jonli deb tushunilgan daraxtlar arxaik tessavurlarda jinslarga ham bo‘lingan. Shu sabab qadimgilar daraxtlarning hosildorligi insonlarga, insonlarning serfarzandligi daraxtlarning serhosilligiga magik ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga ishonganlar. Ayolning befarzandligi faqat uning yoki oilasining baxtsizligi emas, butun jamiyat va tabiat uchun falokat hisoblangan.

Daraxtlarni jonli deb tessavur qilish natijasida xalq lirikasida xotin-qizlarni, umuman insoniyatni turli daraxtlar obraziga o‘xshatish, tenglashtirish paydo bo‘lgan. Mifologik tafakkurga ko‘ra umuman o‘lim yo‘q – faqat mohiyatning, jon (ruh)ning bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishigina bor. Ko‘pgina xalq qo‘shiqlari esa hayotiy zaminlari bilan birga mifologik asoslarini ham saqlab qolgan va mifo-poetik tafakkur mevasi hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, xalqimizning daraxtlarga chuqur e’tiqodlari qadimga borib taqaladi. Ibtidoiy ajdodlarimiz daraxtlarning mevali va mevasiz bo’lishini kuzatgach, ularni batamom inson kabi deb o’ylagan. Olis o’tmishda ajdodlarimizning daraxtlar bilan bog`liq bunday dastlabki kuzatishlari, tajriba va tasavvurlari ularga nisbatan hozirgi munosabatlarning shakllanishida o’ziga xos asos vazifasini o’tagan.

Qadimgi ajdodlarimiz mevali, yoqimli hidli daraxtlar yaxshi ruh sohibi, aksincha, mevasiz va yoqimsiz hidli daraxtlar yomon ruhlar qo’nim topgan manzil sifatida odamzotga yo baxt, yo baxtsizlik, turli-tuman kasalliklaru kulfatlarni keltiradi, tabiiy ofatlarga sababchi bo’ladi, deb tushunganlar.

Olamning va odamning paydo bo’lishiga aloqador tasavvurlar daraxtlarga ham bog`lanadi. Shunga ko‘ra daraxtlar bevosita qizlarga, ma’shuqa yorga yoki oshiq yigitlarga qiyoslanib kelinadi.

D.Zeleninning yozishicha, qadimgi odam ajdodlari dastlab daraxt ustida yashagan. Shuning uchun o’lganlarni yana qayta tushib kelgan manziliga jo’natish

maqsadida daraxtlarga osib dafn etilgan. Shuningdek, marhumlarni daraxtga osish ularga abadiy hayot baxsh etishga oid qarash mangu hayot manbayi sifatida tasavvur etiladigan «hayot daraxti» haqidagi mifologik ishonchlar bilan tutashdir.⁶

Xalq daraxtlarni ruhlar tushunchasi bilan bog`lar ekan, ezgu va yovuz ruhlar istalgan vaqtida emas, asosan, belgilangan ma'lum vaqtarda daraxtlarga tashrif buyuradi, deb qaragan. Ezgu ruhlar ko'pincha bahor boshlanib, daraxtlar gullashi bilan odamlar orasiga keladi. Qishda esa ko'proq yovuz ruhlar kezib yuradi, degan qarashlar qadimgi insonlar orasida keng tarqalgan.

Odamlar yaxshi ruhlarni xushbo'y islar bilan chaqirish mumkin, yomon ruhlarni esa o'tkir hidli, achchiq, sho'r narsalar bilan haydash mumkin, deb o'ylaganlar. Shunday qarashlar vositasida shomonlar daraxt novdalari bilan bemorlarni davolashga intilishgan. Jiyda, anjir, yong'oq kabi daraxtlar yomon ruhlar qo'nim topadigan manzil-makon deb qaralgan. Agar bunda odam ehtiyyotsizlik qilib, shu daraxtlar ostida uqlab qolsa, yovuz ruhdan zarar topishi uqtiriladi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov xalqning qora tolga nisbatan kuchli magik qudratga ega deb qarashini e'tirof etadi. Bunda qora tol insonga yaxshilik keltiruvchi sifatida qaralmaydi. Balki u yovuz ruhlarni, jinlarni o'ziga chaqirib oluvchi va atrofdagi jonli narsalarga, ayniqsa, insonlarga zarar etkazuvchi vosita sifatida qaraladi.⁷

Odamning paydo bo'lishini daraxtlar bilan bog`lashga oid qarashlar nafaqat xalq og`zaki ijodida, balki yozma adabiyotda ham yorqin ifodasini topgan. Jumladan, Alisher Navoiyning quyidagi bayti bu borada alohida e'tiborni tortadi:

Ey husn aro sohib g`ino, xurshid otangdur, oy – ano,

Istar esang nisbat yono: ham sarv – og`a, gul – singil.

Shu tariqa xalq ijodi va yozma adabiyotda daraxtlar insonga qondosh, ma'shuqa yoki oshiq timsolida keltirilgani kuzatiladi.

⁶ Зеленин Д. Тотемы – деревья в сказаниях и обрядах европейских народов. – М.–Л., 1937. – 77 с.

⁷ Саримсоков Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.

Daraxt timsolining inson tushunchasiga ko'chirilishining boshlang`ich sababi qadimgi insonlarning odam paydo bo'lishiga aloqador tasavvur-tushunchalari bo'lsa, ikkilamchi, daraxt va insonga xos xususiyatlar (masalan, tikka, go'zal qomat sarvga, egik qomat majnuntolga, bag`rikenglik tolga, gerdaymachoqlik terakka) o'zaro qiyoslanadi. Odamlar o'z farzandlari orqali hayotini, shajarasini davom ettirishi kabi mevali daraxtlarning o'z danagidan yana qayta unishi, yosh va keksa bo'lishi, unishi yoki qurishi (go'yo inson singari tug`ilib-o'lishi) holatlari bir-biriga o'xshatiladi.

Shundanmikin, insonlarga nom qo'yishda ham daraxt nomlari asosida ism berish an'anaga aylangan. Chunonchi, Sarvigul, Sarvinoz, Sarvqad, Shamshod, Gulbodom, Gulenor, Gulnora, Olmaniyoz va boshqa shunday ismlarni uchratish mumkin.

Qadimgi odam daraxtni, insonlardek, doimo jonli va harakatda, deya sig`ingan. Bu fikrning tasdig`i va ishonchini esa, o'simlik va daraxtlarning fasllarda o'zgarib turishida ko'rgan. Shuning uchun ibtidoiy inson, iloji boricha, ularni bemaqsad chopib, kesib, sindirib "azob" berishdan o'zini saqlagan. Ularni "xafa" qilib, o'z rizqiga putur etkazib qo'yishdan cho'chigan. Biroq inson tafakkurining rivojlanishi natijasida bu fikrlar o'z kuchini yo'qotib, shu tushunchalarning izlari xalq ijodida ramziy obrazlilik kasb etib, saqlanib qolavergan. Shuning uchun xalq og`zaki ijodi asarlarida, odatda, inson va o'simlik, daraxt obrazlari teng keltiriladi. Go'zal qizlar – gulga, botir, baquvvat yigitlar – chinorga, oshiqlar holati – majnuntolga ruhiy nisbat berib qiyoslanadi. Jumladan, ishqdan qaddi dol oshiqlar holati folklorda ham, yozma she'riyatda ham ko'pincha majnuntol obraziga qiyoslanishi badiiy an'ana tusini olgan:

Majnuntollar egildi,

Yor egilmaydir menga.

Kelib holim so'rmaydi,

Qanday ko'ngil beray unga.

Jamiyatning rivojlanishida, har bir xalqning hayotida e'tiqodiy qarashlar ustuvor vazifaga ega. Albatta, e'tiqodlar turli davrlarda bir- biridan mazmunan farq qilgan holda vujudga kelgan. Shunday e'tiqodlardan biri – “fetishizm” hisoblanadi.

“Fetish” atamasini XVIII asrning ikkinchi yarmida franstuz olimi K.de Bross keng qo'llagan. U afrikalik qabilalarning jonsiz narsalarga hayratini fetishizm deb nomlagan. Fetishizm jonsiz narsalarga sig`inish bo'lib, uning boshqa tillardagi ma'nosi: tumor, sajda qilinadigan narsa, sehrli narsa, but kabi ma'nolarni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, fetishizm tirik bo'lмаган, jonsiz narsalarga sig`inishdir. Faylasuf Kant esa, fetishizm atamasi haqida: “Insonning barcha tashqi, ham tabiiy, ham sun'iy ashyolarda xuddi biznikiga o'xshash joni bor, mavjudotlarni ko'rishga moyilligini – sof fetishizm” deya ta'riflagan.

Fetishlar haqidagi bilimlarni fetishizm o'rganadi. Fetishizm qadimgi diniy-mifologik e'tiqodlarning bir ko'rinishidir. U aslida animizm tarkibida shakllangan. Shuning uchun ko'pincha fetishizm animizmdagi diniy e'tiqodlarning bir ko'rinishi deb qaraladi.

Turli xil narsalarga sig`inish fetishizmning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Bu esa muayyan predmet va hodisalarni jonli narsa deb tasavvur qilish asosida kelib chiqqan.

Jahon folklorshunosligida “animizm”, “fetishizm”, “fetish” tushunchalari haqida juda ko'p to'xtanilgan. Jumladan, L.Y.Shternberg fetishizmni yer yuzidagi jonsiz narsalarni muqaddaslashtirishga asoslangan qadimgi tasavvurlar to'plami sifatida qarasa, E.B.Taylor va G.Spenser kabi olimlar fetish darajasiga ko'tarilgan predmetni magik qudratga ega ruhning o'rnashib yoki ko'chib kirib olgan makoni deb izohlaydilar. V.N.Xaruzin fetishizmning bosh xususiyati jonsiz, harakatlanmaydigan narsa obrazining ruh tushunchasi bilan bog`lab talqin etilishida ko'rinishini ta'kidlaydi.

A.F.Losevning fikricha, “jonlantirilgan va ayni paytda moddiy jism sifatida muayyan fizikaviy xossalarga ham ega bo'lgan narsa fetishdir”. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, sehrli-fantastik ertaklar syujeti tarkibida

uchraydigan xayoliy sehrli uzuk, sehrli tumor kabi taqinchoqlar obrazining kelib chiqishi fetishizm bilan bog`liqligiga shubha yo'q. Zero, real hayotda g`aroyib uzuk uchramasa-da, biroq u mavjud moddiy jismning xususiyatini fetishistik qarashlar asosida bo'rttirish, mubolag`alashtirish, tilsimlashtirish asosida yaratilganini anglash mumkin.

O'zbek folklorshunosi Sh.Shomusarov arab va o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan sehrli uzukning "xizmatkor" bo'lishi motivining "fetish"da muqaddaslashtirilgan narsaning o'zini emas, balki o'sha predmetga ko'chgan rujni nazarda tutish bilan bog`liq fetishistik tasavvurlar asosida kelib chiqqanligini aniqlagan.⁸

Umuman aytganda, fetishlar vositasida qadimgi insonlar o'zi uchun hamisha sirli tuyulgan borliqqa munosatlarini ifoda etganlar. Sehrli-fantastik ertaklarda esa bunday munosabat g`aroyib taqinchoqlar obrazi vositasida ham badiiy ifoda etilganini kuzatish mumkin.

Fetishistik qarashlar hamda shu asosda yaratilgan badiiy obrazlar fetishistik miflardan ta'sirlanishni o'zida namoyon etadi.

Epik asarlarda sirli taqinchoqlar qahramonga homiylik ko'rsatib, uni qullab-quvvatlaydi. Shuning uchun Sh.Shomusarov "g`aroyib narsalar"ni "sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklar qahramonining fantastik timsolini yaratishda ishtirok etadigan badiiy detallardir", – deb ta'riflaydi.⁹

Ma'lumki, tabiatdagi turli narsalar, hodisalar va ularning murakkab tomonlari ibridoiy davr kishilariga sirli bo'lib kelgan, natijada, kishilar ularni ilohiy deb tushunganlar va ularga sig`inganlar. Bunda buyumlarda, narsalarda aslida haqiqatda bo'lgan xususiyat asos qilib olingan. Masalan, shunday o'simliklar borki, ularning zahri tirik jonni o'ldirish xususiyatiga ega bo'lib, o'simlikning bunday xususiyati aynan g`ayritabiiy deb qaralgan.

O'l kamizda turli diniy-mifologik e'tiqodlarning marosimlari qorishib, umumiy bir qolip vujudga kelgan va ibodat uchun tashqi ko'rinish emas, ichki

⁸ Шомусаров III. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-киёсий таҳлили. – Т.: Фан, 2002. – Б.274-275.

⁹ Шомусаров III. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-киёсий таҳлили. – Т.: Фан, 2002. – Б.280.

kuchlarga, ya'ni, Oliy kuchga sajda qilib, najot so'rash muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Tumorlar fetishizmni aks ettiruvchi predmetlardan biridir. Olkamiz mintaqalarida tumor shakli bir-biridan farq qilgan. Ularga tangalar, ingichka ninalar, yaltiroq ovalsimon marjonlar va ko'zmunchoqlar osilgan. Masalan, yulduzlarning muqaddas kuchiga qadimdan ishongan bo'lib, kelinning boshi va ko'ksiga Oy tasviri bor taqinchoqlar taqqan, peshonasiga taqiladigan taqinchoqda Hilol oy tasviri bo'lib, bu baxt, serfarzandlik belgisi bo'lgan. Tumorlarda eng ko'p tog` echkisi tasvirlangan, bunga sabab O'rta Osiyoda tog` echkisi va qo'y muqaddas hayvon hisoblangan. Muqaddas hayvonlar bilan bir qatorda muqaddas o'simliklar va daraxtlar ham bo'lgan. Xususan, eng muqaddas daraxtlar do'lana va na'matak hisoblangan.

Eng qadimgi tumorlardan biri – tarkibida kauri chig`anoqlari bor taqinchoqlar hisoblangan. Surxandaryoning Sopollitepa obidasidan topilgan tumorlarda ilonlar tasviri tushirilgan. Bu tumor sehr-jodu ramzi sifatida qo'riqlash vazifasini bajargan.

Fetishizm e'tiqodining asosini ishonch tashkil etadi, ya'ni unda narigi dunyoning bu dunyodan ustunligi haqidagi tasavvur-tushunchalar e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Olkamizda qadim zamonlarda butlar o'rnida bir bo'lak toshdan va marhumning ruhini bildiruvchi qo'g`irchoqlargacha ishlatilgani ma'lum. Fetishizm diniy e'tiqodlar ichida eng murakkab bo'lib, bu diniy tasavvur shakllangan makonlardagi odamlarning dastlab har xil buyumlardan: toshlar, daraxt, tumor, sanam va hokazolardan ko'mak olishga umid bog`laganliklari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og`zaki badiiy an'analari tizimida poetik tafakkur taraqqiyotining ilk qatlamlariga tegishli o'ta qadimiy syujetlar, epik motivlar, mifologik inonch-e'tiqodlar asosida yaratilgan obrazlar silsilasi alohida o`rin tutadi. Shuning uchun mifologik obrazlarning hamda ular ta'sirida o'sib chiqqan turli ramziy timsollarning tarixiy asoslarini o'rganishga to'g`ri keladi. Bu esa hozirgi folklorshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

I.2. Marosim va udumlarda totemizm, animizm, magiya va fetishizmga ishonch

Inson tabiatning tarkibiy qismi va farzandi sifatida vujudga kelgan va rivojlangan. Shu sababli insoniyatning eng qadimiy an'analari, marosim va bayramlari bevosita tabiat, undagi o'zgarishlar, yil fasllari va mehnat jarayoni bilan uzviy bog`liq bo'lган. Tabiatning ko'klamgi uyg'onishi haqidagi mifologik qarashlar o'simliklarni, daraxtlarni, hatto ayrim hayvon turlarini timsollashtirishga asoslangan agrar kultlar va magik xarakterdagi ramziy harakatlar tizimidan iborat rituallarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

O`zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo`yi o`zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'analaringning uyg'unlashuvidanagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o`ta o`ziga xos, yorqin va turli-tuman bo`lib, urug`chilik patriarxal munosabatlardan kelib chiqqan. Urf-odatlarning ko`pchiligi oilaviy hayotga tegishli bo`lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to`yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to`yi, to`y) bilan bog`liq bo`ladi. Ko`pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog`liq bo`lган undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko`pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o`zgargan, o`zbeklarning hayotiga musulmon dininy marosimlari kirib kelgan. Hafta kunlarining muqaddaslashuvi diniy marosimlar ta'sirida paydo bo`lган. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig`iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o`qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o`tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan jarayon sifatida ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Arxaik shomonlik marosimlarining aksariyati raqs harakatlari asosida o'tkazilgan. Bunda shomon ijrochining izlari kuzatiladi.

Umuman, arxaik marosimlar mavjud insoniyat marosimlarining ibtidosi sanaladi. Ushbu marosimlarda amalga oshiriladigan ba'zi bir udumlari hali ham O`zbekistonimizning ba'zibir hududlarida saqlanib, amal qilinib kelinmoqda.

Qadimgi insonning daraxtlarni o'zi bilan qondosh, ruhan yaqin deb o'ylashi, insonning ruhi tug'ilganicha ham, o'lidan keyin ham daraxtda bo'ladi deya tushunishi, inson joni ruh bo'lib bir ko'rinishdan boshqasiga (jumladan, hayvonmi, daraxtmi yoki biror o'simlik ko'rinishigami) evriladi deb qarashi daraxt va o'simliklar olami bilan ham bog`liq e'tiqodning shakllanishiga olib kelgan. Shu e'tiqodning izlari tug`ilish hamda o'lim yuz berishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlarda sezilarli darajada saqlanib qolgan. Binobarin, bola tug`ilganda uni qora tol, tut yoki boshqa mevali daraxtlardan tayyorlangan beshikda yotqizish yoki dunyoga kelgan o'g'il chaqaloq nomiga terak ekish va bola bilan teng o'sib-ulg`aygan shu terakni unga atab qurilgan imoratga ishlatish, shuningdek, inson vafot etganda uni qora toldan yasalgan yog`och tobutga solib, dafn qilish uchun ko'tarib ketish, tobut oldida daraxt tanasidan hassa tutib turish, mayit qabrga qo'yilib, ustidan tuproq tortilgach, hassakashlarning o'z hassalarini qabr boshiga yoki atrofiga suqib qaytishi odatlarida daraxt bilan bog`liq e'tiqod yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqimizning urf-odat va marosimlarida qo'llanib, e'tiqodiy qarashlarni o'ziga singdirgan bu kabi predmetlar folklor asarlarida ko'pincha ramziy ma'nomazmunda talqin etilishi kuzatiladi. Shu orqali ularning inson hayoti bilan bog`liqligi haqida avlodlardan-avlodlarga o'ziga xos usulda xabar qoldirilgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan beri beshikning qanaqa daraxtdan yasalishiga alohida e'tibor bergenlar. O'tmishda beshikni, asosan, tut, o'rik, olma, qaroli, yong`oq kabi mevali daraxtlardan yasaganlar. Beshikning mevali daraxt tanasidan yasalishida insonning sermeva – ko'p farzandli bo'lishiga oid istak ramzan nazarda tutilgan. Hozir ham beshiksozlar bunga qisman amal qilishadi. Lekin hozir beshikni bola tolday sersoya bo'lsin deb toldan, yana xushqomat bo'lsin deb arg`uvon va qarag`ay daraxtlaridan ham yasashadi, chunki odamlar mevali daraxtlarni kesishni uvol bilishadi. Lekin baribir beshikning ikkita dastcho'basini

va yug`isini mevali daraxtdan yasaydilar. Toshkentlik beshiksozlar beshikning yug`i va gardishlarini tutdan yasashadi.

O'rik yog`och beshiging, alla,
O'rgilib ketsin onang, alla,
Tut yog`ochdan beshiging, alla,
Termulib o'tsin onang, alla.¹⁰

Bu alla matnida bola beshigi poetik ta'riflanar ekan, uning qanday daraxtdan yasalganligiga alohida e'tibor berilganini qayd etish lozim. Axir beshik – go'dakning uyi-da, u shu beshikdagina orom olishi, shunday paytlarda esa, ona o'z yumushlarini amalga oshirishi mumkin.

Beshik poetik ta'rifida u yasalgan daraxt turiga ishora alohida o'rinni tutadi.

Qarolidan beshigi,
Qayrilib oling, dadasi.
Zardolidan beshigi,
Zar to'kib oling, dadasi.
Olmadandir beshigi,
Olqishlab olsin onasi.
Tutdandir beshigi,
To'kilib kelsin ammasi.
Jiydadandir beshigi,
Jikillab kelsin opasi.

O'zbek ustalari o'rik, tut, sada va boshqa daraxtlarining magik ta'siriga ishonch tufayli bolalar beshiklarini, odatda, ana shularning yog'ochidan yasaydilar. Bu fikrni xalq baxshilarining do'mbiralariga nisbatan ham aytish mumkin. An'anaviy inonchga ko'ra, bunday beshiklarda ulg'aygan bolalar serfarzand, baxtli, el bahramand bo'ladigan kishilar bo'lib yetishadilar.

Motam marosimida hassakashlar o'z hassasini ramziy ma'noda tayyorlashadi. Ya'ni marhum uvali-juvali kishi bo'lsa, hassa uchun mevali yoki

¹⁰ Boychechak. Bolalar folklori va mehnat taronalari. To'plovchilar: O.Safarov, K.Ochilov. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B.13.

qora tol daraxtidan novda olinadi. Agar marhum hayotdan befarzand o'tgan bo'lsa, hassa terak yoki boshqa mevasiz daraxtdan tayyorlanadi. Turk olimasi S. Fedakar ham "The lament tradition among the Uzbeks", ya'ni "O'zbeklarda yig'i- yo'qlov an'anasi" nomli maqolasida motam buyumlari motam marosimi folklorining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlab o'tadi.¹¹

Marhum qabrga qo'yilib ko'milgach, hassalarni qabr boshiga (ba'zan atrofiga) suqib ekish odati asosida ham ma'lum mifologik tasavvur-tushunchalar yotadi. Go'yo shunday qilinsa, marhum ruhi shu hassalardan biriga ko'chib, qayta tiriladi deya tasavvur qilinadi. Shu o'rinda qadimgi insonlarning "hayot daraxti", "umr daraxti" haqidagi mifologik qarashlari yodga tushadi. Demak, qabrga suqib ekilgan hassalar marhum ruhiga abadiylik baxsh etuvchi, uni qayta tiriltiruvchi hayot daraxtidir. U o'zida abadiy hayotni aks ettiradi.

Hassada hayot mavjudligi g`oyasi xalq epik asarlarida, ayniqsa, afsonalarda erga suqligan hassaning qayta unib daraxtga aylanishi motivi shaklida saqlanib qolgan. Jumladan, bu an'anaviy motivga Bahouddin Naqshbandiy nomi bilan bog`liq afsonalarda duch kelish mumkin. Unda aytishicha, hozirgi paytda Bahouddin Naqshbandiy ziyoratgohida saqlanayotgan katta tut yog`ochi bir vaqtlar aziz avliyoning erga suqib qo'yilgan hassasidan qayta unib chiqqan daraxt ekan.

Qurigan, ildizsiz, tayoq shaklidagi hassaning qayta ko'karib, daraxtga aylanishi o'ziga xos xayoliy uydirma, badiiy to'qima, epik talqin bo'lib, shu orqali mo''tabar kishilarning ilohiy qudrati mubolag`ali, ta'sirchan qilib bayon etiladi. Hassaga nisbatan xalq e'tiqodi ta'kidlanadi.

Folklorshunos D.O'rayeva ta'kidlaganidek, qadimgi insonlarning daraxt totemi, hayot daraxti, umr daraxti bilan bog`liq mifologik qarashlari, daraxtni o'ziga homiy kuch deb anglashi, unga nisbatan magik himoya vositasi deya munosabatda bo'lishi hassaning kelib chiqishiga asos yaratgan.¹²

¹¹ www.scopus.com/search:uzbek folk songs/S.Fedakar. The lament tradition among the Uzbeks.

¹² Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – Б.120.

Xalq orasida “hassalar marhum qabriga soya bo’ladi” deb izohlanadi. Bu talqin asosida hassanining daraxtga aylanishi va shu orqali marhum ruhi qayta tirlishi haqidagi ishonch yotadi.

Baxshilar do’mbirasining qulog`i, albatta, archa daraxtidan yasalgan. Archa ham xalq tasavvurida barhayotlik ramzidir. Archaning qishin-yozin bir xilda, yam-yashil tusda turishi, ko’pincha tog`da – yuksaklikda o’sishi odamlarni hayratga solgan. Bu haqda xalq topishmoqlari ham yaratilgan. Bu kabi topishmoqlarda archaga xos aynan shu belgi orqali uning nomini topishga yo’llanadi:

Yozda ham qishda,
Bir xil kiyimda.

Yoki:

Yozin-qishin barobar,
Bir xil turar barglar,
O’zi ming yoshga kirar.

Archaning ko’p yillik daraxt ekanligi hamda qishin-yozin bir xil tusda bo’lishi sirini angolmagan inson archani sirli, magik qudratga ega deb qarashiga olib kelgan. Archaning yoqimli hidi esa uni yaxshi ruhlar qo’nim topgan manzil deb qarashga olib kelgan. Hatto taom tayyorlashda ham archadan foydalanishgan.

Archaning ko’p yillik daraxt ekanligi xalq qo’shiqlarida ham e’tirof etilgani kuzatiladi:

Tog’da archa ming yil umr ko’rarmi,
Shoxi sinsa zargar ko’mir qilarmi.
Zargarning bilgani archa bo’larmi,
Bilib bergen ko’ngil judo bo’larmi.

Qadimdan archa daraxti ko’miri eng yaxshi pista ko’mir hisoblangan. Qo’shiqda shu hayotiy voqelikka urg`u qaratilmoqda.

Yevropa xalqlari Yangi yilda, albatta, archani uylariga olib kelib, uni turli yaltiroq bezaklar bilan bezatishadi. Archa kirgan uygaga qut kiradi, deb qarashadi. Demak, archa bilan bog`liq e’tiqodiy qarashlar xalqimizga ham xosdir. Jumladan, baxshilarning “Do’mbiram” termalarida, odatda, do’mbira cholg`u asbobining

mevali daraxtdan yasalishiga, uning qulog`i esa qatiq va chidamli bo`lgan archa yog`ochidan tayyorlanishiga e'tibor qaratiladi:

Bo`yog`ing zardolu, qopqog`ing tutdan,
Ulfating bor yurtdan bo`lgan, do`mbiram.
Seni menga qilib bergen ustakam,
Elim minan qilgan ekan mustahkam,
Chertganda berasan bulbulday muqom,
Tovushim qanoti bo`lgan, do`mbiram.
Bo`yog`ing zardolu, qulog`ing archa,
Chuldirab so`ylasang bu fayzli kecha,
Orqangdan ergashar xaloyiq necha,
Katta mening siyim bo`lgan, do`mbiram.

Ushbu termada do`mbiraning bo`yog`i zardolidan, qopqog`i tut daraxtidan, qulog`i esa archadan ekanligi ta'kidlab o'tilmoqda.

Dastlabki uzuk namunalari totem sanalgan hayvonlarning terisidan, suyagidan, keyinchalik turli metallar (bronza, mis, kumush, oltin, jez) dan yasalgan.

Suyak taroqlar ko'pincha totem sifatida ardoqlangan jonivorlarning shoxi yoki suyagidan tayyorlangan. Xususan, sigir shoxidan yasalgan taroqlar ancha urf bo`lgan.

O'zbek marosimlari orasida gulga aloqador totemistik qarashlar asosida o'tkaziladigan marosimlar ham alohida o'ringa ega. Ular o'z maqsad va vazifasiga, o'tkazilish tarziga va vaqtiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Aytaylik, birinchi gulning unishi, lola va lolaqizg`aldoq (qizil gul) sayli bilan bog`liq udumlarda gulga nisbatan e'tiqodiy qarashlar etakchilik qiladi.

Sayli guli surx erta bahorda lolaqizg`aldoqlar ochilib, ko'zlarni yashnata boshlagach, Buxoroda o'tmishda o'tkazilgan umumxalq shodiyonasi. Buxoroda "Guli surx" sayli gulga oid qadimiy totemistik an'analar zaminida shakllangan bo'lib, uzoq tarixga ega. "Guli surx" sayli Navro'z tantanalari bilan bog`liq umumxalq shodiyonasi sifatida juda tantanali o'tkazilgan. Bu sayl, asosan, Navro'ziy an'ana sifatida Aprel (Sarv) oyining boshlaridan mayning o'rtalarigacha

davom etgan, lekin dastlabki qizg`in davri boshlang`ich qismidagi ikki hafta hisoblangan. Navro'zning belgilari orasida boychechak va qizil gul alohida o'rincutadi.

O'zbek oilalarida gulga oshuftalik va e'tiqod qadimdan shakllangan bo'lib, qator an'analarda hamon davom etib kelmokda. Bu hol, xususan, Navro'z kunlarida o'zita xos marosimga aylangan boychechak, lola sayli, qizil gul (Buxoroda – "Sayli guli surx") an'analarda, shuningdek, Namanganda har yili nishonlanib kelinayotgan Gullar bayramida yorqin ko'rindi. Ajdodlarimiz gulga shunchaki muhabbat ramzi sifatida qarash bilan cheklanmagan, aksincha, rayhon, yalpizlardan taompazlikda foydalansa, shirchoyguldan gulob, nastarin va boshqa bir qator gullardan tabobatda turli dorilar tayyorlashda foydalangan. Shodiyona kunlarda esa bir-birlariga gullar tortiq qilishgan. Bunda, asosan, muattar hidli gullardan foydalanilgan. Kelin-kuyovlar boshiga gullardan sochqi qilingan, oyoqlari ostiga gullardan poyandoz solingan. Bu udum Hindistonda hozirgacha saqlanib kelayotir.

Qadimgi ajdodlarimiz yoqimli hidli gullardagi yaxshi ruhlar insonga doimiy homiy, yoqimsiz hidli gullardagi yomon ruhlar odamzotga baxtsizlik, turli-tuman kasalliklaru kulfatlarni keltiradi, tabiiy ofatlarga sababkor bo'ladi, deb tushunganlar. Odamning paydo bo'lishiga aloqador tasavvurlar gullarga ham bog`lanadi. Qadimgi hind eposida hikoya qilinganidek, jahondagi eng sohibjamol ma'buda Lakshmi – Atirgul g`unchasidan paydo bo'lgan mish. Shunga ko'ra gullar bevosita qizlarga, ma'shuqa yorga qiyoslanib kelinadi. G`uncha esa ilohiy mo'jizalar ramzi sifatida qaraladi.

Xalq gullarni ruhlar tushunchasi bilan ham bog`lagan. Xalq ezgu va yovuz ruhlar istalgan vaqtida emas, asosan, belgilangan ma'lum vaqtarda tashrif buyuradi, deb qaragan. Ezgu ruhlar ko'pincha bahor boshlanib, gullar unishi bilan odamlar orasiga keladi. Qishda esa ko'proq yovuz ruhlar kezib yuradi, degan qarashlar qadimgi insonlar orasida keng tarqalgan.

Odamlar yaxshi ruhlarni xushbo'y islar bilan chaqirish mumkin, yomon ruhlarni esa o'tkir hidli, achchiq, sho'r narsalar bilan haydash mumkin, deb

o'ylaganlar. Shunday qarashlar vositasida shomonlar gullar bilan bemorlarni davolashga intilishgan. Bunda ular: “**Gul momo parilarning tili** bilan sizdan madat tilarman!” – deya, Gul momo paridan madad so'rashgan. Gul momo pari O'rta Osiyo xalqlari orasida momo ruhlardan birining nomidir. Bunda momo ruh qo'nim topgan manzil-makoniga qarab nomlangan bo'lib, **Gul momo** gullar, xususan, atirgul orasida qo'nim topishi aytiladi. Bu momo ruh ehtiyyotsizlik qilgan odamga zarar etkazishi ham mumkin. Agar odam gul tagida uxbab qolsa, bu momo ruhdan zarar topishi uqtiriladi. Bundan ko'rindiki, Gul momo insonga zarar va ozor etkazuvchi yovuz va raqib kuch sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun Folklorshunos B.Sarimsoqov xalqning qizil rangli atirgulga nisbatan kuchli magik qudratga ega deb qarashini e'tirof etadi. Bunda qizil atirgul insonga yaxshilik keltiruvchi sifatida qaralmaydi. Balki u yovuz ruhlarni, jinlarni o'ziga chaqirib oluvchi va atrofdagi jonli narsalarga, ayniqsa, insonlarga zarar etkazuvchi vosita sifatida qaraladi.

Gul timsolining ayol tushunchasiga ko'chirilishining boshlang'ich sababi qadimgi insonlarning odam paydo bo'lishiga aloqador tasavvur-tushunchalari bo'lsa, ikkilamchi, gul va ayolga xos xususiyatlar – noziknihollik, go'zallik, yoqimlilik, jozibadorlik, maftunkorlik o'zaro qiyoslanadi. Shundanmikin, qizlarga nom qo'yishda xam gul nomlari asosida ism berish an'anaga aylangan. Chunonchi, Rayhon, Ra'no, Nargis, Nilufar, G'uncha, Lola, Gulra'no, Oqgul, Sarvigul, Gulchiroy, Gulandom, Gulchehra, Mohigul, Gulbadanbegim, Baxtigul, Binafsha va boshqa yuzlab shunday ismlarni uchratish mumkin.

Xalqimizda chakkaga boychechak, lola kabi gullarni qistirib yurish ilgari juda keng tarqalgan odat bo'lган. Bu shunchaki ermak bo'lmay, turmushning farovonligi, oilalar serfarzandligiga ham magik ta'sir qiladi, deb tushunilgan.

Gul marosimlari va bayramlari dunyoda keng tarqalgan an'analardan biridir. Ko'pgina mamlakatlarda gullarga bag`ishlangan, jumladan, Grestiyada – sunbul, Yaponiyada – xrizantema, Franstiyada marvaridgul, Hindistonda – atirgullarga bag`ishlangan maxsus ritual tadbirlar mavjud. Ammo bunday tadbirlar qaerda o'tkazilmasin, ularning mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqin. Faqat ular har bir

millatning o'ziga xos urf-odatlari va folkloriga uyg'un holatda tashkil etilishi kuzatiladi.

Qadimdan gul sayllari yaxshi taraqqiy etgan xalqlardan biri bo'lgan o'zbeklar orasida hozirgi paytda gul bayramlari rivojlantirilmoqda. Chunki bu yangi bayramning rivojlanishi uchun o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan, tabiat qo'ynida o'tkaziladigavn Gul sayllari: "Lola sayli", "Sunbula sayli", "Lolaqizg`aldoq sayli", "Guli surx" ("Qizil gul") sayli yetarli zamin bo'ldi. Xullas, gulga oid ana shu qadimiy an'analarga yangi zamonaviy gul bayrami munosib payvand bo'lib ketdi va ularning zamirida barq urib rivojlanmoqda.

An'anaviy gul (lola, sunbula, boychechak) sayllari bahor faslida dala gullari ochilganda tabiat qo'ynida, saylghohlarda uyushtirilgan bo'lsa, zamonaviy gul bayramlari yoz faslida shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda madaniyat va istirohat bog`larida o'tkaziladi. Shunisi bilan an'anaviy gul sayllarini hozirgi zamonaviy gul bayramlaridan farqlash mumkin.

Umuman aytganda, xalqimiz orasida gul bilan aloqador e'tiqodiy qarashlar tizimi shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishi ibtidoiy insonlarning totemistik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi.

Qadimda otlar rangi marosimiy ahamiyat kasb etib, g`olib shohlar va sarkardalar zabit etilgan shaharlarga doimo oq otda tantanali ravishda kirib borganlar. Oq ot turkiylarda muvaffaqiyat, g`alaba, omad ramzi hisoblangan. Ma'lumotlarga qaraganda, turk hoqonlaridan biri bo'lgan Kultegin oq rangli otini minib jangga kirganda doimo g`alaba qozongan ekan.¹³

Ko'hna rasmlarda ma'budlar Ardvissura va Anaxita bir xil zotli to'rt oq ot qo'shilgan aravada Tangri dargohidan yerga – bandalari huzuriga uchib tushgan holda tasvirlangan.¹⁴

"Avesto"da Axriman qora ot ko'rinishida tasvirlangan. Bunga uning yovuzlik va o'lim ramzida talqin qilinishi asos bo'lgan.

Xullas, qadimgi odamlar nabotot va hayvonot dunyosining insoniyatga homiyligiga ishonib, ba'zi o'simlik (daraxt) va hayvonlarga odamlarning

¹³ Рахмонов Н. Ўрхун-Енисей ёдномалари. 172-б.

¹⁴ Авесто. Тарихий-адабий мерос. А.Махкам таржимаси. – Т., 2001. – Б. 171.

qo'riqlovchisi va Tangrilari deb qarashgan.¹⁵ Bunday totemistik tasavvur-tushunchalar ranglarga e'tiqod orqali yanada mustahkamlangan. Kishilar o'zining yoki yaqinlarining sog`lig`i, oilasining tinchligi va xotirjamligi, ishlarining yurishishi uchun ko'pincha qora, kulrang, oq tusdagi, qizg`ish tusdagi qo'chqor, qo'y, echki, tovuq kabi jonzotlarni qurbanlik ataydilar. Bunda Xudo yo'liga qilinadigan qurbanlik uchun, asosan, qizil qo'y tanlanadi. Chunki xalq orasida qizil rang sihat-salomatlik va xursandchilik tushunchasida ramziylashtirilishi an'anaviy lashgan. Shuningdek, Xudo yo'liga mol qurbanlik qilishda oq rangdagi jonivorlar: oq qo'y, oq qo'chqor, oq ot kabilar ham tanlanishi mumkin. Zero, bunda oq rangning egzilik, poklik ma'nolari asos bo'ladi.

O'zbek folklorida bo'ri obrazi bilan bog`liq motivlar ko'p uchraydi. Sababi, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo'lgan o'zbek xalqi orasida ham bo'ri totemi va bo'ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Shuning uchun bo'rining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor haqidagi xalq ishonchlari, bo'rining marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar alohida e'tiborni tortib kelgan.¹⁶

O'zbek folklorshunosligida bo'ri obrazining genezisi, xususan, uning mifologik asoslari haqida M.Jo'rayevning bir qator kuzatishlari mavjud.¹⁷ Shuningdek, G^.Akramov ham bo'ri obrazining totemistik mohiyatini oydinlashtiruvchi qiziqarli fikrlarni bildirgan.¹⁸ O'zbek xalq lirkasining tarixiy asoslarini o'rgangan A.Musaqulov esa qo'shiqlardagi bo'ri obrazining ramziy ma'nolari xususida to'xtalgan. U bo'ri bilan bog`liq ramzlarning xalq qo'shiqlaridagi talqinlari bevosita bo'ri totemi to'g`risidagi qadimgi mifologik qarashlarga bog`liqligini qayd qilgan.¹⁹

Udumshunos A.Ashirov o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari xususida to'xtalar ekan, bo'ri kultiga ishonch bilan aloqador udumlarga ham alohida e'tibor berib o'tgan.²⁰

¹⁵ Аширов А. Ўзбек ҳалқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Б. 12.

¹⁶ Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков. – С.135-142.

¹⁷ Жўраев М. Бўри ҳакидаги қадимги мифлар ва ўзбек фольклори / Адабиёт гулшани. – Т.: Меннат, 1999. – Б.8-17.

¹⁸ Акрамов Ф. Тотемистик мифлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 3. – Б.32-35.

¹⁹ Мусакулов А. Ўзбек ҳалқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

²⁰ Аширов А. Ўзбек ҳалқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Milliy kutubxonasi нашриёти, 2007. – Б. 199-205.

Ajdodlarimiz orasida bo'ri totem hayvon sifatida alohida e'zozlanib kelingan.²¹ Qadimgi ota-bobolarimiz o'zini ko'kturk – osmon bo'rilaridan paydo bo'lgan deb hisoblagan.

Xalqimizning bo'ri totemiga ishonchi izlari hozirgacha ayrim an'anaviy urf-odatlarimiz misolida sezilib turadi. Ayniqsa, bu tug'ilgan chaqaloqlarga ism qo'yish odatida yaxshi saqlanib kelayotir. Masalan, hozirgacha tishi bilan tug'ilgan chaqaloqlarga bo'ri nomi bilan bog`lab ism qo'yish odati saqlanib qolgan. Bunday bolalar, odatda, rizqli bo'ladi, deya yaxshi niyat qilinadi. Tish bilan tug'ilgan o'g'il bolaga Bo'rivoy, qiz bolaga esa Bo'rigul deb nom qo'yadilar.

Odamlar o'lgan bo'rini, albatta, insonday e'zozlab, dafn qilganlar. Jasadini hech vaqt ochiq qoldirmaganlar. A.A.Potapovning ma'lumotiga qaraganda, yoqutlar o'lik bo'rini tashlab yubormaganlar, balki uning jasadini daraxtga osganlar.²²

E'tiborli jihat shundaki, bo'ri kultiga ishonch izlari ko'pincha homilador ayollar, chaqaloqlar, bemorlar, ya'ni himoyaga muhtoj qatlamga tegishli rituallarda yorqin kuzatiladi. Bunday rituallarning aksariyati bola tug'ilishi va uni sog`lom o'stirish bilan bog`liq irimlarda ko'zga tashlanadi. Xalqona davolash rituallarida ham bo'ri himoyasiga ishonch katta o'rin tutadi. Samarqand tabiblari bo'ri panjasib bilan bemorning boshini silaganlar. Bo'rining tuyilgan suyagi shakar bilan aralashtirilib bemorlarga malham sifatida ichirilgan. Tabobatda bo'rining o'ti foydali sanalgan. U, asosan, bemorning og`riqli joylari terisiga malham qilib surtilgan. Qizig`i shundaki, bu kabi ishonchlarning badiiy talqini folklor asarlarida ham uchraydi. Jumladan, o'zbek xalq dostoni "Avazxon"da shunday motiv mavjud: Avaz Maqotil bilan jangda o'qdan yaralanadi. Shodmon va Asad meraganlar Avazxonning yarasini ayiq o'tini, qashqir kartini, toshbaqanining moyagini olib, uchovini birga qo'shib aralashtirib, yumurtqa malham qilib davolaydilar.²³

²¹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б, Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.44.

²² Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков. – С.135-142.

²³ Мискол пари. Гулнор пари. Авазхон. Достонлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б.303-375.

Xalqimiz orasida bo'rining junidan, tishidan, tirnog`idan tumorlar qilib taqish odati ham mavjud. Jumladan, bo'ri terisidan, bosh suyagidan, tishi yoki tirnog`idan bolalarning qo'liga, bo'yniga, yotadigan beshigiga, kiyimlarining elka qismiga tasma-tumorlar tayyorlab ilib qo'yishgan. Lekin bunday tumorlarni faqat bolalarga emas, kattalar o'zlariga ham ishlatishgan. Ular "ko'zdan asrovchi" magik vositalar sifatida qaralgan. Ana shu sabab bo'ri qismlarini sotish irim qilingan. Uni faqat sovg`a qilish mumkin bo'lgan. Agar ayol kishi bo'ri qismlaridan biror narsani erkak kishiga sovg`a qilgudek bo'lsa, albatta, yonida unga atab do'ppi yoki belbog` ham tikib hadya qilishi shart sanalgan.

Qadimda bo'ri ob-havoga ham ta'sir ko'rsatadi, deb qaralgan. Lekin hozir ham quyosh charaqlab turgan bo'lsa-da, yomg`ir yog`sса, bolalar qiyqirib-qiyqirib quyidagi qo'shiqni aytishadi:

Bo'ri bola tug`di,
Ovchi uni quvdi.
Ushlolmay yugurdi,
Yomg`ir uni yuvdi.

Yoqtular bo'rini qadimgi momaqaldiroq xudosi Uluu – Toyonaning o'g'li deb hisoblashgan.

Qadimda bo'ri so'zini ko'pda ochiq ishlatmaganlar. Bu so'zni ishlatishda tabuga amal qilganlar. Shundan kelib chiqib, bo'ri so'zining o'rniga "jondor", "qashqir", "gurki", "talaymon" singari tabularni ishlatganlar.

Turk xalqlari bo'rini o'ziga bu dunyoda ham, u dunyoda ham homiy deb anglagan. Shu sababli turk qavmlari o'lim yuz berib, yaqinlaridan ajralganlarida marhumni bo'ri ixtiyoriga topshirish uchun bo'ridek ulib, bo'ridek vahshiy tusga kirib, bo'rinamo xatti-harakatlarni bajarganlar. Buni taniqli elshunos va folklorshunos Mahmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`atit turk" asarida keltirilgan quyidagi she'riy parcha ham tasdiqlaydi:

Bo'ri bo'lib uldilar.
Yirtib yoqa turdilar.
Yig`lab-siqtab yurdilar,

Ko'z yoshlari mo'l bo'ldi.²⁴

Qadimgi davrga xos dafn qilish odati – murdalarni vafotidan so'ng uch kun o'tgach, maxsus boqilgan itlarga yoki qushlarga (bo'rirlarga ham) yem qildirib, suyagini etidan tozalatish va shundan so'ng ajralib qolgan suyaklarni "ostadan" yoki "ossuriy" deb ataluvchi maxsus idishga solib saqlab qo'yish odati amal qilgan.

Hozirgacha yangi mozordan uch kungacha xabar olib turish udumi garchi mifologik tasavvur-tushunchalar zamirida kelib chiqqan bo'lsa-da, unga amal qilishning o'ziga xos hayotiy zaruriyat ham bor. Zero, yangi qabrni it, bo'ri, chiyabo'ri kabi hayvonlar ochib, titib tashlamasligi uchun bu ish amalga oshiriladi.

Sovchilar uyga qaytib kelishgach, ulardan "Bo'ri bo'ldimi, tulki", deb so'rashgan. Bo'ri deyilsa – masala ijobiy hal bo'lganini anglatsa, tulki- masala ochiq qolgani, hal bo'limgani yoki tamoman rad javobi berilganini anglatgan.

M.Jo'rayev o'zbeklar orasida Navro'zdan keyingi uch kun ichida bolalar, yigitlar "**Gurgurgak**", "**Bo'ri keldi**", "**Bo'ri o'yini**" degan o'yinni o'ynashi o'ziga xos an'anaga aylanganini ta'kidlaydi. O'yin jarayonida bolalar niqob kiyib, soqolmo'ylov qilib, bo'rnikiga o'xshagan quloq yasab, to'nlarining orqasini yig`ishtirib, burab dum qilib, uyma-uy yurganlar. Har bir uyga borganda qo'shiq aytganlar Uy egasi chiqqanida uni haligi "dum"i bilan urganlar. Xonadonlardan yeguliklar yig`ilgan.

Qadimgi turkiylar Navro'zni "bo'zkurt kuni" deb ham atashgan ekan.²⁵ M.Jo'raevning yozishicha, Navro'zda va to'y-tantanalarda an'anaviy tarzda tashkil qilinadigan "ko'pkari" ("uloq") o'yinining nomi aslida talaffuzda fonetik o'zgarishga uchragan "ko'kbo'ri" nomi bo'lib, qadimgi turkiylar orasida mo''tabar sanalgan jonzot sifatida e'zozlangan bo'ri haqidagi tasavvurlarga bog`liqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qadimgi turkiy qavmlarning mifologik qarashlari, marosim folklori va inonch-e'tiqodlarda o'z ifodasini topgan.

²⁴ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталибов. – Т.: Фан, 1960. – Б.60-62.

²⁵ Жўраев М. Наврӯз. – Т.: Фан, 2011.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Qadim insonlar tabiat va insonni o'zaro bog`liq deb o'ylashgan. Hatto qadimgi odamlar o'zini ayrim hayvon yoki o'simlik turidan tarqagan deb hisoblagan. Shu tariqa totemistik qarashlar vujudga kelgan va tarqagan.
2. Animizm va totemizm bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlar, ayniqsa, folklor asarlarida uchraydigan o'simlik va hayvonlar obrazida yorqin aks etadi.
3. Fetish predmetlarning magik himoya qudratiga e'tiqod arxaik marosimlar misolida ham kuzatiladi. Bu bilan bog`liq arxaik tushunchalar hozirgi qurbanlik hayiti udumida yaxshi saqlanib qolgan.
4. Totem predmetlarning magik himoya qudratiga e'tiqod izlari beshik to'yi va motam marosimlari udumlarida ham saqlanib kelmoqda.

II BOB. O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA ANIMZM VA FETISHZMGA ISHONCH IZLARI

II.1. Xalq qo'shiqlarida animistik ham fetishistik qarashlar izlarining ifodasi

O'zbek xalqining mifologik qarashlari tizimida animizmga ishonch tabobat bilan bog`liq tarzda yaratilgan qo'shiqlarda yorqin kuzatiladi. Shunisi bilan ularning qadimiyligi ravshanlashadi. Asosiy g`oyasi insonlarni hushyorlikka, ehtiyyotkorlikka, sog`lom turmushga, poklikka da'vat etuvchi bunday aytimlarda homiy ruhga murojaat etakchilik qiladi. Kinna, badik, gulafshon kabi janrlarda momo, pari, dev, ajina, alvasti kabi mifologik obrazlar nomi tilga olinar ekan, ular orqali xalqning ruhlarga, ya'ni animizmga ishonchi ifoda etiladi:

Qadimgi insonlar biror shaxs kasal bo'lib qolishiga yomon ruh zarar etkazishi sabab bo'ladi, deb anglaganlar. Bemor tanasiga joylashib olgan ziyon-zahmatni quvish uchun maxsus aytimlar aytilib, ma'lum xatti-harakatlar bajarilgan. Masalan:

Momo kirna bo`lsang, chiq,

Arvoj kirna bo`lsang, chiq.

Jin kirna bo`lsang, chiq,

Dev kirna bo`lsang, chiq.

Pari kirna bo`lsang, chiq,

Hasad kirna bo`lsang, chiq.

Ko`z kirna bo`lsang, chiq,

Suq kirna bo`lsang, chiq.

Suqchining qiziman, kirna,

Jinning qiziman, kirna.

Ushbu matndagi momo, arvoj, jin, dev, pari kabilar mifologik obrazlar bo'lib, ular o'zida xalqning animizmga bo'lgan ifonchini namoyon etadi.

Oh dedim, mudomo ko`nglim o`sdi,
Siltadim, qilichim g`animni kesdi.
Ko`hi Qofdan olib keldim Yunusdi,
Qora devman qon to`kishgan kunlarim.

Daryoda yuzganlar kema ham soldi(r),
Bedovga yarashgan quyruq ham yoldi(r).
Bog`i Eramdan olib keldim Misqoldi,
Parilarman o`ynab-kulgan kunlarim.

G`irotim qaytmaydi g`o`non tobidan,
O`n to`rt marta oshdim Balo tog`idan.
Ikki pari oldim Ko`hi Qofidan,
Dunyodan bemurod o`tgan kunlarim.

“Kunlarim” termasidan keltirilayotgan ushbu misralardagi Qof tog`i, Balo tog`i, Bog`i Eram, Qoradev, pari, xususan, afsonaviy epik qahramoln Go`ro`g`lining xotinlari – Yunus va Misqol pari obrazlari ham mifologik toponim va eponimlar sifatida o’z ildizlariga ko’ra qadimgi insonlarning animistik tasavvurtushunchalariga borib tutashadi.

G`arbiy Yevropa xalqlari har bir odamda uchta ruhi bo’lishi, ulardan birinchisi Olori deb nomlanishi va u insonning boshida joylashishini tasavvur qilganlar. Bu ruh insonni hamisha balo-qazolardan himoya qiladi, asrab-avaylaydi, unga foydali maslahatlar berib turadi, deb qaraganlar va unga ko’pincha uy parrandasini qurbanlik keltirishgan. Shu tarzda bosh muqaddaslashtirilgan. Sharq xalqlari orasida ham bosh muqaddas a’zo hisoblanadi. “Bosh omon bo’lsa, do’ppi topiladi” degan gaplar buni bemalol dalillay oladi. Boshni muqaddaslashtirish bosh kiyimlarini muqaddaslashtirishga olib kelgani, shubhasiz.

Tillaqosh – yosh kelinlarning an’anaviy bosh taqinchoqlaridan biri. U, asosan, peshonaga taqiladi va qosh ustiga tushib turadi. Shuning uchun Surxon vohasining Xufar, Maland qishloqlarida uni “bolo abro”” deb ham atashadi.

Tillaqosh Toshkent, Buxoro, Farg`ona hamda Samarqand ayollarining eng sevimli taqinchoqlaridan bo`lib, qizlarni turmushga tillaqoshsiz uzatmaganlar. Shu odat sabab xalq qo'shiqlarida tillaqoshning kelinchaklar taqinchog`i ekanligi alohida ta'kidlanganini kuzatish mumkin:

Zargar yasar tillaqosh,
Kelinchaklar taqsin deb.
Yig`layman marjon yoshim,
Oq yuzimga oqsin deb.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bo'lajak kelinlar atashtirilgandan so'ng manglayqosh, tillaqosh deb yuritiluvchi bezak taqqanlar. Bu bezakning peshonaga taqilishining o'ziyoq tarixiy asoslariga ko'ra, magik ishonchlar bilan bog`liqligini namoyon etadi. Negaki, xalq inson manglayi (peshonasi)ga uning butun umri yozig`i bitilgan bo'ladi, deb qaraydi. Faqat bu yozuvlarni oddiy kishilar o'qiy olmaydi degan ishonch bor. Qadimda va hozir ham manglay, yuzdagi ajinlar, kaftdagi chiziqlarga qarab, uning egasi taqdiri haqida fol ochuvchilar uchraydi. Xalq orasida boshiga biror musibat tushgan kimsalarga qarata "Peshonangga yozilgani bo'ladi", "Peshonasiga shu yozilgan ekan", "Peshonangga yozilganini ko'rasan", "Peshonangdagidan qochib qutulolmaysan" deya dalda berilishida ham shu ishonch asos sanaladi. A.Musaqulov ta'kidlaganidek: "Peshonaning an'anaviy dunyoqarashda inson taqdiri bilan bog`liqligi manglayi keng yoki yorug`, manglayi oq, manglayi qora, sho'rpeshona kabi tushunchalarda ham sezilib turadi".²⁶

Qadimgi kishilarning boshga nisbatan e'tiqodiy tasavvur-tushunchalari soch bilan bog`liq e'tiqodlarning ham shakllanishiga olib kelgan. Soch bilan bog`liq predmetlar xalq she'riyatida o'ziga xos badiiy vazifalarda talqin etilgani ko'zga tashlanadi. Ularning obrazlantirilishi esa bevosita qadimgi insonlarning soch kultiga aloqador qarashlariga borib taqaladi. Qadimgi insonlar sochning o'ziga xos biologik xususiyatlarini chuqur anglab etmaganliklari uchun u bilan bog`liq sifat o'zgarishlarining sodir bo'lish sabablarini magiya bilan bog`lab izohlashga uringanlar.

²⁶ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.132.

Xalq sochda magik xususiyat bor deb qarab, unga nisbatan e'tiqodiy munosabatda bo'lgan. Shu tariqa soch kulti shakllangan. Shuningdek, sochga tabu bilan ham munosabatda bo'lingan. Sochga nisbatan tabu esa soch bilan bog`liq turli irim-sirimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, soch kulti bilan bog`liq qarashlar sochga aloqador marosimlarning kelib chiqishiga zamin bo'lgan. sochni himoya qilish maqsadida unga taqiladigan turli buyumlar yaratilgan. Sochga taqiladigan taqinchoqlar "jamalak", "sochpopuk", "po'pak" deb nomlanib, to'y-hashamlarda bezatilgan sochpopuklar, kundalik turmushda esa oddiyları taqilgan.

Soch bilan bog`liq motivlar dastlab epik asarlar syujetiga singdirilgan, keyinchalik esa ular lirik asarlarga ham singgan. Shuning uchun xalq qo'shiqlarida sochning turli ma'nolardagi ramziy talqinlariga duch kelish mumkin. Xalq qo'shiqlarida soch ranggiga qarab ko'proq ramzlashtiriladi. Qora soch – yoshlik, go'zallik, quch-qudrat, etuklik ramzini ifodalab kelsa, oq soch – keksalik, ulug`vorlik, donolik ramzini anglatadi.

Soch bilan bog`liq irimlar ham juda ko'p. Aytaylik, bir uyda ikki kishining baravar soch tarashi taqiqlanadi. Homilador ayol soch qirgsa, qornidagi bolasining umri qirqiladi deyiladi. Soch patini har joyga tashlamaslik kerakligi uqtiriladi. Soch tolasini musicha olib ketib in qursa, o'sha soch egasi qattiq bosh og`rig`iga giriftor bo'lishi aytildi. Soch tokning tagiga ko'milsa, soch uzun bo'larmish. Kamalak chiqqanda sochni boshdan o'girib ostonaga qo'yib chopsa ham, soch uzun bo'lishi aytildi. Hatto bu irimni bajarish jarayonida aytildigan aytimlar bizgacha etib kelgan. Faqat u hozirgi paytda bolalar repertuarida uchraydi:

Kamalakjon, kamalak,

Ra'noga ber jamalak.

Yoki:

Ertaga Navro'z, ertaga.

Kelinlar zulfi kamalak,

Momolar taqar jamalak.

Navro'zda yurtning qizlari

Pishiradilar sumalak.

Soch bilan bog`liq magik-e`tiqodiy qarashlar tug`ilish, nikoh va o`lim kabi inson umrining asosiy bosqichlarini tashkil etuvchi barcha yirik marosimlarning asosiy udumlari tarkibiga singgan. Keyinchalik soch kulti haqidagi qarashlar mohiyati xalq epik va lirik asarlarida o`ziga xos talqin topgan.

Soch magiyasi haqidagi qadimgi tasavvur-tushunchalarning o`zbek xalq qo'shiqlaridagi badiiy talqinini o'rgangan A.Musaqulov: "Soch magiyasi bosh kabi osmon g`oyasi bilan bog`liq bo'lganligi uchun og`zaki ijodda soch juda qudratli kuch sifatida talqin qilinadi... Magiya hodisasiga ko'ra, soch jonli va qudratlidir".²⁷

Ba'zi udumshunoslar soch o'sish xususiyatiga ega bo'lganligi bois qadimgi odamlar uni hosildorlik g`oyasi bilan bog`laganliklarini bizgacha etib kelgan miflar vositasida aniqlashga urinadilar.

J.Eshonqul ta'kidlaganidek, qadimgi marosimlarga aloqador aksariyat motivlar epik asarlar bag`rida o`ziga xos talqin qilinganligi kuzatiladi.²⁸ Jumladan, qadimgi odamlarning soch kulti bilan bog`liq qarashlari asosida shakllangan ayrim marosimlarning badiiy talqini ertaklarda, keyinchalik qo'shiqlarda ham uchraydi.

Hatto soch afsungarlik va jodugarlik ishlarida muhim detallardan biri hisoblangan. Bunda odamning soch tolasi orqali egasiga magik ta'sir o'tkazilgan. Soch tolasi olib kuydirilsa, uning egasi qattiq bosh og`rig`iga yo'liqishi; agar soch tolasi axlatga, nopol joylarga tashlansa, uning egasi g`am-tashvish va kulfatga giriftor bo'lishi aytiladi. Demak, sochni kuydirish bilan uning egasining ruhiyatiga ta'sir o'tkazish, uni bezovta qilib, xotirjamligini o'g`irlash haqidagi qarashlar mavjud.

Umuman aytganda, xalq badiiy ijodida soch bir necha xil talqin qilinadi: 1. **Sochning tabiiy go'zalligi.** Qirq kokilli go'zal pari qizlar, xushro'y malikalar, uzun sochli qizlar ta'rifi ertaklarda alohida e'tiborni tortadi va tinglovchining estetik zavqini oshiradi. 2. **Sochning notabiiy xususiyati.** Tilla kokilli va zar kokilli insonlar obrazi talqini misolida buni kuzatish mumkin. 3. **Sochning magik**

²⁷ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.109.

²⁸ Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006.

kuch-qudrat manbai sifatidagi xususiyati. Qadimgi odamlar soch uzoqdagi odam bilan xabarlashish vositasi bo'la oladi, deb tasavvur qilishgan. Bunday tasavvur-tushunchalarning izlari o'zbek xalq ertak va dostonlarida ham seziladi. Ularda soch obrazining aloqa-xabar vositasi sifatida talqin qilinganligini kuzatish mumkin. Jumladan, "Kuntug`mush" dostonida go'zal Xolbeka Kuntug`mushga nisbatan muhabbati haqida soch tolasiga o'ralgan rasmini tilla sandiqqa solib daryoga oqizib yuborish orqali xabar etkazadi.

Nikoh to'yida bo'lajak kelinchakka nikoh uzugi va nikoh sirg`asi sovg`a qilinishi xalqimiz orasida o'ziga xos an'ana tusini olgan. Shuning uchun nikoh to'yiga aloqador yor-yor, kelin salom singari xalq qo'shiqlarida kelinchaklar taqadigan taqinchoqlar (uzuk, marjon, bilakuzuk kabilar) ko'p obrazlantirilgani ko'zga tashlanadi.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,

Uzuk-uzuk, yor-yor.

Qani kuyov, to'y oldida

Tillo uzuk, yor-yor?

Hay-hay o'lan, jon o'lan,

Qiynalur jon, yor-yor.

Qani kuyov, to'y oldida

Shoda marjon, yor-yor?

Yana:

Oltin sirg`a taqsa yaxshi

Osilib turgan quloqqa.

Bilakuzuk taqsa yarashar

Oq badanli bilakka.²⁹

Yuqoridagi yor-yorda uzuk-uzuk va yor-yor takror so'zlari orqali kelin-kuyov ramziga ishora qilinayotganini sezish mumkin.

²⁹ Kelinoy, 227-b.

Ko'zmunchoq – munchoqning bir turi. U ko'z tegishidan saqlanish niyatida taqiladi. Shundan kelib chiqib, xalq qo'shiqlarida uning shu maqsad bilan taqilishi alohida e'tirof etib o'tilgani ko'zga tashlanadi:

Ko'zmunchoqlar taqsinlar,

Ko'z tegmasin, yor-yor.

Yaxshi-yomon odamdan

So'z tegmasin, yor-yor.³⁰

Xullas, o'zbek ayollarining quloq, burun, tish va bo'yin, tomoq osti taqinchoqlari, asasan, to'y ritualiga oid buyumlar bo'lib, ko'pincha nikoh to'yiga aloqador xalq qo'shiqlarida badiiy obrazlantirilgani kuzatiladi.

Qo'lga, aniqrog`i, barmoqqa taqiladigan an'anaviy taqinchoqlardan biri uzukdir. Uni mamlakatimizning ko'pgina hududlarida "uzuk" deb atasalar, ba'zi joylarida "angushtarin" deb ataganlar. O'ziga to'q boy xonadon sohib va sohibalari, asasan, tilladan yasalgan uzuk taqqan bo'lsalar, o'rta hol aholi ko'pincha kumushdan yasalgan uzuk taqqanlar.

Uzukni qaysi qo'lga taqish ham e'tiborga olinadi. Turmushga chiqqan ayollar nikoh uzugini o'ng qo'lga taqishgan. O'ng qo'lga taqilgan uzuk ayolning oilasi borligini bildirib turgan. Shu holat xalq qo'shiqlarida quyidagicha ta'kidlanganini kuzatish mumkin:

Yomon bo'lsam mayliga

O'tiraman, yor-yor.

O'ng qo'limni uzukka

To'ldiraman, yor-yor.

O'ng qo'limning uzugi

Mayishadi, yor-yor.

Singlim uchun qovurg`am

Qayishadi, yor-yor.³¹

³⁰ Kelinoy, 131-132-b.

³¹ Kelinoy, 135-b.

Xalq orasida turmushga uzatilmagan yoshi katta qizlar “o’tirib qolgan” qiz hisoblanadi. Yuqoridagi qo’shiqda singlisini o’ylab, uni yolg`iz tashlab ketishga ko’ngli bo’lmagan opaning o’z baxtidan kechayotgani, buning uchun u xalq orasida “yomon” deb gap tarqalishidan “bo’lsam mayliga” deya qo’rqmasligi, “O’tirgan qiz o’rin topar” deganlaridek, baribir hayotda qachon bo’lsa-da o’z o’rnini topishiga ishonishi, turmushga chiqib “o’ng qo’lini uzukka to’ldirishi” muqarrarligi yoritilmoqda. “Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi” deganlaridek, lirik qahramon “O’ng qo’lining uzugi hozirlikcha singlisi uchun qayishgani sabab mayishayotgani”ni bildirmoqda.

O’ng qo’limning uzugi

Chap qo’limga sig`maydi.

Qurib ketgur zolimlar

O’z holimga qo’ymaydi.³²

“O’ng qo’limning uzugi chap qo’limga sig`maydi” deyish orqali lirik qahramon turmushidan, suyukli yoridan ajragisi yo’qligini, yana avvalgiday tanholikda yashashni xohlamasligini ta’kilamoqda.

Osmonda oy tug`ibdi, yor–yor–yorone,

Oyni bulut bo’g`ibdi, yor–yor–yorone.

Sening bergen uzuging, yor–yor–yorone,

Barmog`imni bo’g`ibdi, yor–yor–yorone.

Oyni bulutning bo’g`ishi yorug`lik o’rnini zulmat egallashiga sabab bo’lgani kabi uzukning barmoqni bo’g`ishi uning egasi jonini og`riqqa va azobga giriftor etib, ruhiy holatini xira etadi. Qo’shiqda shu tenglik vositasida o’z sevgilisidan, yaxshi niyatlar bilan birgalikda oila qurgan yoridan ozor chekkan lirik qahramonning ruhiy holati oila qurish ramzi bo’lgan barmoqqa taqilgan uzuk obrazi orqali ochib berilmoqda. Uzukning barmoqni bo’g`ishi – oiladagi qiyinchilik ramzini o’zida ifoda etmoqda.

O’zbek ayollarining sevimli taqinchoqlaridan yana biri bilakuzuk bo’lib, u ba’zi joylarda “dastpona” deb ataladi. Qo’shiqlarda bilakuzuk obrazi ham ko’p

³² Kelinoy, 39-b.

uchraydi va oila, nikoh munosabatlarini ramziy ifodalashga xizmat qilishi kuzatiladi:

Bilagimdagи bilakuzuk,

Bilagimga sig`maydi.

Dushmanlarning gaplari

Yuragimga sig`maydi.³³

Bilakuzuk ham uzuk kabi tilla va kumushdan yasalgan. Ayrimlarining eni bir-bir yarim barmoq bo`g`in bo`lsa, ayimlari ikki-uch yarim barmoq bo`g`inni tashkil etgan. Bilakuzuklarga naqsh berilib, ayimlariga qimmatbaho toshlardan ko`zlar ham qo`yilgan. Ularning “panja”, “turna”, “islimi” kabi turlari mavjud bo`lgan.

Qadimda ayollar bo`ri boshi tasvirlangan bilakuzuk taqishgan. Bu oddiy taqinchoq bo`lmagan, balki totemistik qarashlarga taalluqli marosimlarda magik ashyo sifatida qo`llanilgan. Bo`ri boshli bilakuzuk aslida uni taqqan ayolni ziyon-zahmatdan asraydigan magik vosita vazifasini o`tagan.

Taqinchoqlardan yana biri kamardir. Kamar – belga taqiladigan taqinchoqlardan biri. Xalq qo`shiqlarida tilla kamar obrazi ko`p uchraydi. Negaki, o`tmishda kuyovlarga kamar taqilgan. Shuning uchun to`y qo`shiqlarida kuyov bolaning beliga kamar bog`laganiga alohida e`tibor qaratiladi:

Ot ustida o`ynagan,

Beliga kamar bog`lagan

Kuyov to`raga bir salom.

Tilla va kumushdan yasalgan kamarlar sadaf, zumrad, firuza kabi qimmatbaho toshlardan ko`z qo`yib bezatilgan.

Xullas, xalq qo`shiqlarida qo`lga taqiladigan uzuk, bilakuzuk, soat, belga taqiladigan kamar singari predmetlarning obrazi ko`p uchraydi va ular lirik qahramonning ruhiy holatini badiiy talqin etish uchun ramziy ma`nolarda oila, nikoh, sevgi munosabatlarini yoritishga xizmat qilishi kuzatiladi.

³³ Kelinoy, 40-b.

II.2. Xalq qo'shiqlarida magiyaga ishonch izlarining badiiy ifodasi

Magiya arxaik din ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga inonch xalqaro xarakterga ega. Chunki magiyaga ishonch barcha xalqlar orasida keng tarqalgan. Qizig`i shundaki, unga xos tushunchalarning izlari hozirgacha saqlanib kelmoqda. Bu haqda taniqli o'zbek qo'shiqshunosi A.Musaqulov shunday yozadi: "Fan va texnika g`oyat keskin rivojlanganiga qaramay, so'nggi yillarda unga (magiyaga – S.Sh.) inonch butun jahonda qayta jonlandi. Magiya jahon tafakkuri tarixida shu darajada muhim rol o'ynaganki, J.Frezer insoniyat tafakkur tarixini: **magiya, din, fan bosqichlariga bo'lgan**".³⁴

Magiya atamasi o'zbek folklorshunosligida ilk marta 1986 yilda marosimshunos olim Bahodir Sarimsoqov tomonidan,³⁵ undan keyin o'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlarning qo'llanilishini maxsus tadqiq qilgan eposshunos olim Mamatqul Jo'rayev tomonidan qo'llangan bo'lsa,³⁶ istiqlol yillarida uni boshqa folklorshunoslар ham faol qo'llay boshladilar.³⁷

Magiya haqida ingliz olimi Jorj Frezer ilgari surgan qarashlar va talqinlar juda qimmatlidir. U **magiya tamoyillari** haqida so'z yuritib, bu borada shunday fikr bildirib o'tadi: "Magik tafakkur ikki tamoyilga asoslanadi. Ulardan birinchisining qoidasiga ko'ra, o'xhash narsa o'xhashini keltirib chiqaradi yoki oqibat o'z sababiga o'xhashdir. Ikkinci tamoyilga ko'ra, bir-biri bilan bir marta to'qnash kelgan narsalar, to'g`ridan-to'g`ri aloqa tugagach ham, yaqin-olis masofadan o'zaro ta'sir ko'rsatishlarini davom ettiraveradi. Birinchi tamoyilni o'xhashlik, ikkinchisini esa aloqadorlik yoki yuqtirish qonuni deb atash mumkin. Birinchi tamoyil, ya'ni aynan o'xhashlik qonuniga ko'ra, magiya unga taqlid qilib, har qanday istalgan harakatni bajarish mumkin". Ikkinci tamoyilga

³⁴ Мусакулов А. Магик ишонч-иримлар реликтларининг халқ лирикасидаги поэтик кўринишлари / Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.99.

³⁵ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.

³⁶ Жўраев М. Ўзбек халқ әртакларида "сехрли" рақамлар. – Т.: Фан, 1993.

³⁷ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010; Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004; Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 132 б.; Миф, афсона ва талқин. – Навоий, 2015. – 102 б.

asoslanib u qandaydir predmetga qilgan ta'siri bilan shu predmet bilan bir marta aloqada bo'lgan shaxs (tanasining bir qismi va h.k.), buyumga albatta ta'sir ko'rsataman, degan xulosaga keladi... u o'xshashlik va aloqa qonuni nafaqat inson harakatlari, balki hamma narsaga tegishli deb, hisoblaydi.³⁸

J.J.Frezer "Oltin butoq" nomli mashhur asarida sehr-jodu (magiya)ning mana shu ikki ko'rinishi borligini e'tirof etar ekan,³⁹ uning fikricha, magianing *gomopatik ko'rinishida* biror kishining narsasiga ta'sir ko'rsatish orqali uning o'ziga ta'sir ko'rsatish mumkin. Masalan, biror kishining sochini kuydirish orqali uning boshiga og`riq kiritishga erishish gomopatik magiya samarasi hisoblanadi. Chunki "gomo" – yunoncha "o'xshash, bir xil" degani bo'lib, gomopatik magiya talabiga ko'ra o'xshash narsalar o'xshash narsani taqozo etishini bildiradi. Shunga binoan boshga unga yaqin va o'xshash narsa, masalan, soch orqali ta'sir ko'rsatmog`ini anglatadi.

Magianing *muloqot ko'rinishida* kishilarning o'zaro muloqotda bo'lishi orqali birining xususiyati ikkinchisiga yuqishi mumkin deb qaraladi. Masalan, suqlangan odamdag'i kinna yuki u bilan muloqotda bo'lgan kishiga ham o'tadi, deb hisoblanadi.

Magiya qonunlarini tabiat qonunlarining buzilgan tizimi, yolg'on fan, samarasiz sa'nat deb baholagan olim ibridoij jamiyatda maglar ulkan ijtimoiy vazifa bajarib, butun jamoa manfaatlari uchun xizmat qilganlarini inkor etmaydi.

Magiyaga ishonch xuddi animizmga ishonch kabi barcha dinlarning tarkibiga singib ketgan. A.Musaqulov ta'kidlaganidek, fanda magiya haqidagi qarashlarda yakdillik yo'q.⁴⁰

Mashhur yana bir etnograf S.A.Tokarev magiyani boshqalardan farqli o'laroq birmuncha to'liq ta'riflaydi: "Insonning g`ayritabiyy tarzda u yoki bu moddiy ob'ektga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishiga asoslangan. Ayni paytda animistik tasavvurlar bilan bog`liq bo'limgan marosimlargina magiyadir".⁴¹

³⁸ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.19.

³⁹ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.37-38.

⁴⁰ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.100.

⁴¹ Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛ, 1990. – С.245.

Arxaik marosimlar sirasiga kiradigan “Belbog` yechar” marosimi O`zbekistonimizning ba’zi hududlaridagina o``tkazilib keladi va unda ham magiyaga ishonch yorqin sezilib turadi. Xorazm vohasida nikoh to`yida o`tkaziladigan ushbu marosim o`zining folklor elementlariga boyligi bilan boshqa marosimlar orasida o’z o’rniga ega.

Akang oting uch yashar,
O`rama belbog` yarashar
Sizdek barno yigitga
Bizdek qalliq yarashar.

Malumki, belbog` – erlik ramzi. Ayollar ro`moli kabi erlar belbog`i ham tarixiy asoslarga ko`ra, jinslarni farqlash uchun xizmat qiladi. Xalq lirikasida belbog` erlearning aniqlovchisi bo`lib, poetik ramz darajasiga ko`tarilgan.

Yuqorida keltirilgan qo`schiqni tahlil qilgan M.Alaviya “Qizlarning yigitlarga belbog` tikib berish odati o``zbeklarda juda qadim zamonlardan rivojlangan”ligini⁴² qayd qiladi.

Davrlar o``tishi bilan belbog` timsolining ramziy ma’nosи kengayib, boylik, davlat tushunchalarini ham anglatgan. Xalq qo`schiqlarining tarixiy asoslari bo`yicha ish olib brogan A.Musaqulov xalq lirikasidagi belbog` detalining tarixini quyidagicha sharhlaydi: “O`zbek belbog`lari amaliy, marosimiy, magik funksiyalarga ega. Er va ayollarning aza va to`ylarda bel bog`lashlari ritual ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar yigitlar va erlari uchun turli inonch va irimlar bilan belbog` tikkanlarki, bu belbog`ning magik funksiyasini belgilaydi”.⁴³

Hatto Xorazm vohasida tug`ayotgan ayol yoki juvonni tug`ruq paytida qalin arqon bilan o`rab olganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu esa o`sha davrda magik himoyaga ishongan xalq tushunchalarini ifodalaydi.

To`y marosimida gulxan yoqib, uning atrofida kelin-kuyovni aylantirish ajdodlarimizning olov kultiga sig`inganligining qoldig`i bo`lib, arxaik udumlar sirasiga kiradi. U o’zida xalqning olovni muqaddaslashtirishi, kelin-kuyovning

⁴²Алавия М.Ўзбек халқ қўшиклари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – Б.19-21.

⁴³Мусакулов А. Ўзбек халқ қўшикларининг тарихий асослари. – Т., 1995. – Б.154.

yangi turmushida uchraydigan xafagarchiliklarni, kulfatlarni va shuningdek, baxtsizliklarni oldindan olov kulti orqali tozalash g`oyalarini ifoda etadi.

Olov atrofida aylanayotgan vaqtida kelin paranjida bo`lib, paranji uning kelinchaklik ramzi sanaladi. **Paranji** magik xususiyatga ega deb qaralgan o`zbek milliy marosim liboslaridan biridir. Paranji o`zbek xalqi tarixini kansituvchilar uchun yaxshi bahona bo`lib keldi. Sho`rolar davrida unga hujumlar uyushtirildi, shu tufayli xotin-qizlar o`ldirildi. Holbuki, tarixiy taraqqiyot tufayli ko`pgina islom mamlakatlarida paranji “hujum” kampaniyalarisiz ham o`z tarixiy-etnografik vazifalari va mavqeini yo`qotib bormoqda.

Paranjining turkiy xalqlar, o`zbeklar milliy turmushiga kirib kelishi, bizningcha, islom dini bilan bog`liq. Islomni tanqid qiluvchi ba`zi mualliflar “u yurishga halaqit beradi”, degan bahonani ro`kach qiladilar.⁴⁴ Holbuki, ko`pgina zamonaviy Yevropacha liboslar axloqsizlik, noqulaylik jihatidan paranjini ancha ortda qoldirib ketadi.

Ilgari paranji yopinish odati rivojlanmagan ko`chmanchi o`zbek urug`larida ham ayollar hayotidagi muhim davrlar – kelinchaklik, og`ir oyoqlilik paytlarida paranji yopinish odati bo`lganligini ko`rsatadi.

Daryolarni yoqalab-yoqalab, soy keladi,

Paranjiga o`ralib olib, yor keladi.

Paranjiga o`ralmasa, kim ko`radi,

Uning oydek jamoliga kim to`yadi.⁴⁵

Turmushda kelinchak paranjisining o`ziyok, kishida estetik zavq uyg`otadi. Qizlarga, yigitlarga, ayollar, erlar – yosh-u keksaga turlicha ta`sir qiladi. Har birini o`tmish va kelajak sari xayollar og`ushiga etaklaydi. Boshqacha aytganda, kelinchak paranjisi go`zallik, yangi hayot qo`shig`ining ramzidir. Mantiqan qaralganda, paranjiga o`ralgan yorni ko`rib, oydek jamoliga to`yib bo`lmaydi. Ammo bu faqat begonalar uchundir.

⁴⁴ Клинович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – С.292.

⁴⁵ Клинович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – С.292.

Paranji marosim libosi, kelinchakning aniqlovchisi bo'lganligi uchun o'zbeklarda yuz ochish ajoyib to'y marosimlaridan biridir. Agar kelinchak paranji yopinmasa, ritual liboslar kiymasa, uning to'yga yasanib kelgan boshqa qizlardan farqi, yuz ochish marosimining hojati ham qolmaydi. Shu sababli paranji kelinchakni yashirmaydi, aksincha, kelinchakligini namoyish qilib turadi. Otaona, yanga, kuyov esa uning oydek jamoliga istagan paytida to'yishi mumkin.

Xullas, arxaik marosimlar mavjud insoniyat marosimlarining ibtidosi sanaladi. Ushbu marosimlarda amalga oshiriladigan ba'zi bir udumlari hali ham O`zbekistonimizning ba'zibir hududlarida saqlanib, amal qilinib kelinmoqda.

Ikkinci bob yuzasidan xulosalar:

1. Inson liboslari magik qarashlar bilan bog`liq. Chunki kiyim turlariga inson tanasining magik himoyachisi deb qaralgan.
2. Inson liboslari tarixan juda ko'p ma'nolar kasb etgan va o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, "kiyinish madaniyati" yaralishiga asos bo'lgan.
3. Kiyinish madaniyatining shakllanishida magik qarashlar bilan bir qatorda xalqlarning boshqa qadimiy inonchlari – totemizm, shomonlik, o'zaro ijtimoiy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.
4. Liboslarning magik himoya qudratiga e'tiqod, to'y va motam marosimlari udumlarida ham saqlanib kelmoqda. Xalqimiz orasida an'anaviy to'y va aza marosimlarining o'z maxsus kiyim-kechaklari shakllangan.

III BOB. XALQ QO'SHIQLARIDA TOTEMIZMGA ISHONCHNING BADIY TALQINI

III.1. Xalq qo'shiqlarida daraxtlar obrazi

O'zbek xalq qo'shiqlari orasida daraxt, gul va ayrim o'simlik turlari qiyosiy manba sifatida kelganligini ko'p ko'rish mumkin. Ajdodlarimiz, odatda, daraxtlar hidi va mevasi, guli va ularning qismlarida ham xilma-xil ramziy-majoziy ma'nolarni bergenlar. Jumladan, oshiqlik – majnuntolga, mevali daraxtlar ona – ayolga nisbat berilganidan, ularga xuddi shu ma'nolarni ramzan yuklaganlar.

Daraxtlar turmushning farovonligi, oilalar serfarzandligiga ham magik ta'sir qiladi, deb tushunilgan. Shuning uchun beshik ustidan yong`oq mevalari sochiladi. Jiyda shoxasi sindirib olinib, darvozalar peshtoqiga "Shu xonadonga ko'zu suq kelmasin" degan niyatda ilib qo'yiladi.

O'simlik dunyosining eng go'zal vakillari – daraxtlar folklorda ko'pincha inson obraziga tenglashtirilib, uning ramzi sifatida talqin qilinadi. Faqat ular har bir millatning o'ziga xos urf-odatlari va folkloriga uyg'un holatda talqin etilishi kuzatiladi.

Xalqimiz orasida daraxtlar bilan aloqador e'tiqodiy qarashlar tizimi shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishi ibridoiy insonlarning totemizmga oid mifologik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi.

Daraxt poetik obrazi xalq qo'shiqlarida faol uchraydigan jonli tabiatning bir bo'lagidir. Xalq qo'shiqlarida daraxtlar obrazi, odatda, farzand, oila g'oyalari bilan bog'lanadi. Qadimgi insonlar daraxtlarni mevali va mevasiz bo'lishiga qarab, ularning ham inson kabi jinsi bo'ladi, deb o'yagan. Bir xalq qo'shig'ida shunday deyiladi:

Tog`da archa gullaydi olmurutman,
Pastda terak gullaydi erkak tutman.

Ko'rinyaptiki, baytda erkak tut nomi tilga olinayotir. Folklorshunos A.Musaqulov ta'kidlaganidek: "Modomiki tutning erkagi bor ekan, demak, uning

ayoli ham bo'lishi tabiiy. Turkiy xalqlar tasavvurlarida ota daraxt, ona daraxt, urug` daraxti, har bir kishining o'z umr daraxti bo'ladi, deb ishonganlar. Inson hayoti mohiyatiga ko'ra o'z egizak daraxti hayoti bilan bog`liq bo'lgan".⁴⁶

O'rik – xalq qo'shiqlarida eng ko'p uchraydigan daraxt obrazlaridan biri. Quyida uning motam bilan bog`liq yo'qlov qo'shig`idagi talqini kuzatiladi:

O'rikdan toylar qilay-ov,
Bargiga maktub bitay-ov,
Hayit kuni bolajonimni,
Yig`lab-yig`lab yod etay-ov.⁴⁷

Yoki:

Olmadan otlar qilayin,
Bargiga xatlar bitayin.
Hayit kuni onajonimni,
Yig`lab-yig`lab yod etayin.

O'rik, olma – jannat mevalaridan biri deb qaralgan. Shunday tasavvurtushunchalar orqali yo'qlov mazmunidagi qo'shiqlarda bu dunyoni tark etgan yaqinining jannatda bo'lishini istash, u bilan jannatlarda ko'rishish tilagi, sirli narigi dunyo vakiliga aylangan inson bilan sehrli predmetlar vositasida aloqa bog`lash mumkinligi tushunchalari ifoda etiladi.

Bahor kelishi bilan bog`da gul ochgan o'rik, uning shoxiga qo'nib sayrayotgan bulbul, mayin tomchilayotgan bahor yomg`iriyu sokin esgan shabada – barcha-barchasi lirik qahramonga marhum yaqinini eslatib o'rtantirishi Navro'z yo'qlovlarida alohida ta'kidlanadi:

Mana o'rik bu yil yana gul ochdi,
Osmondag'i bulutlar har tomon qochdi.
Qalbimning yarasi battar tutoqdi,
Bu o'ylarim meni aslo tark etmas.⁴⁸

⁴⁶ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.209.

⁴⁷ Бўзлардан учган газал-ай, 115-бет.

⁴⁸ Бўзлардан учган газал-ай, 113-бет.

Ba'zi qo'shiqlarda insonning tana a'zolari ayrim mevalarga o'xshatilgani kuzatiladi. Masalan, yorning yuzi qizil olmaga, ko'zi o'rikka, qovog'i bodomga, miyasi yong'oq mag`ziga, sochi majnuntolga va hokazo. Quyidagi misralarda yorning ko'zi o'rikka o'xshatilmoqda:

O'rik-o'rik ko'zingdan, o'rik-o'rik,
O'rtanaman ko'rganda seni ko'rib.
O'rtanguncha-kuyguncha seni ko'rib,
Yonboshimda o'tirgin soching o'rib.⁴⁹

Xalq qo'shiqlarida mevali daraxtlar ko'pincha, ayollarga nisbatan obrazlashtirilib, badiiy-ramziy poetik ma'no tashib keladi. Bu jihatdan "olma" xalq lirik qo'shiqlarida nihoyatda keng qo'llanadigan ramziy obrazdir.

Bog`ingga kirib ko'rdir,
Olmang uzguday bo'pti.
Shu qiz mening sevganim,
Olib qochguday bo'pti.⁵⁰

Xalq, odatda, bo'yga etgan qizlarni pishib etilgan mevalarga qiyoslaydi. Xususan, olma – sevikli yor, muhabbat timsollarida beriladi. Ba'zan u farzand ramzini ham ifodalab keladi. Olmaning insonga nisbatan olinishi daraxt topinchi bilan bog`liq tasavvurlarning ta'siri natijasidir.⁵¹ To'rtlikda bo'yga etib, ko'zga tashlanib qolgan qiz pishib etilgan olmaga qiyoslanayotgani aniq ko'rinish turibdi. Qo'shiqda shu ikki o'xshash holatning qiyosan teng keltirilishi orqali parallelizm yuzaga kelgan:

Olmali boqqa kirib
Shaftolini ermi kishi?
O'z yori uyda turib,
Begonani dermi kishi?⁵²

Bu to'rtlikda ham olma – suyukli yor timsolida ishlatilganini ko'ramiz. Shaftoli esa olmaga nisbatan po'sti dag`alroq meva bo'lgani uchun u begona yor

⁴⁹ Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Хрестоматия. – Т.: Алоқачи, 2008. – Б.74.

⁵⁰ Оқ олма, қизил олма, 15-бет.

⁵¹ Амонов Р. Қиссаи беди баланд, чанори пургул ва себи Самарқанд. – Душанбе: Маориф, 1980. – С. 52-60.

⁵² Ўзбек халқ қўшиқлари, 247-бет.

ramzida berilgan. Qo'shiqda shu ikki mevaning xususiyatlariga qiyoslab, asosiy fikr ifoda etilmoqda va etakchi g`oya oolib berilmoqda.

Biror ma'noga ishora qilib, uni bosqichma-bosqich kuchaytirib, oydinlashtirib borish xalq lirkasining o'ziga xos belgilaridan biridir.

Olma oqib keladi,

Behi qalqib keladi.

Suyib olgan yorimni,

Olib yotgim keladi.

Bu misralarda olma va behining oqib kelishi, ya'ni suvdagi harakatlari yorning harakatlariga qiyos etilmoqda. Ma'lumki, olma qadimdan xalq og'zaki ijodida sevgi va muhabbat ramzi hisoblangan. Bu tashbeh keyinchalik yozma adabiyotga ham ko'chgan. Odatda, yoz pallasiga g'arq pishgan mevalar o'z og'irligini ko'tara olmay, daraxt shoxidan uzilib, suvga tushadi. Qo'shiqda g'arq pishgan meva yorning balog'atga yetganligiga ishora qilayotganini sezish qiyin emas. Qo'shiqda yorning yurib kelishi olmaning, behining suvda qalqib oqib kelishiga o'xshatilmoqda.

Xalq qo'shiqlarida **shaftoli** daraxti va mevasi bilan inson obrazi tenglashtirilgan o'rinalar ham ko'p uchraydi. Agar bu jihatdan e'tibor berilsa, qo'shiqlarda shaftoli daraxti obrazi ko'proq uchraydi. Masalan:

Bog'ingizga kirsam man,

Shaftolingiz ajab shoxlik.

Uxlab tushimda ko'rsam,

Qora ko'z, tili totlik.

Yana:

Yorim tikkan do'ppisi,

Shaftoli shohida qoldi.

Chin so'zni bering jonim,

Ko'ngil orada qoldi.

Har ikkala qo'shiqda ham "shaftoli shoxi" birikmasi shaftoli mevasi haqida emas, shaftoli daraxti haqida so'z borayotganini bildirib turibdi. Shaftoli mevali

daraxtlar orasida eng tez hosilga kiruvchi meva daraxti hisoblanadi. Shu xususiyatiga ko'ra u farzand ko'rishni xohlab turgan ayol ramziga qiyoslanadi.

Ko'rdingmi buuog'ini,

Shaftoli tayog'ini.

Onasi qanday qilsin,

Qizining sayog'ini.

Shaftoli yog`ochidan qilingan tayoq mo'rt, tez sinadigan bo'ladi. Hatto shaftoli mevasi ko'pligidan uning shoxasi o'z og`irligini ko'tarolmay, tez sinadi. Uning mevasi pishmay turib, erga qorishadi. Qo'shiqda ana shu hayotiy haqiqatga parallel tarzda o'z bolasini ushlab qololmagan, ehtiyyotlay olmagan onaning farzandi baxtsizlikka yuz tutishi bildirilmoqda.

Bog'ingizga kirdim man,

Shaftolizga to'ydim man.

Qiyo boqib qarangiz,

O'lar bo'lsam o'ldim man.

Yoki:

Olmali boqqa kirib,

Shaftolini yermu kishi.

O'z yori uyda turib,

Begonani dermu kishi.

Bu qo'shiqlarning birinchisida shaftoli mevasi – visolning lazzatli onini ifodalash uchun ishlatilgan bo'lsa, keyingi qo'shiq matnida u orqali begona yor obrazini gavdalantishga xizmat qilgan.

Ayrim holllarda ota-onada ramzi shaftoli mevasi obrazi bilan berilganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan:

Shaftoli pishdi to'kildi, nebalo shirin ekan,

Dunyoning shirinligi ota bilan ona ekan.

Ota bo'lib ona bo'lib, o'lim bo'lmasa ekan,

O'lganlarga behisht bo'lib, do'zax bo'masa ekan.

Yuqoridagi misralarda shaftoli mevasi haqida so'z borayotgan bo'lsa, keyingi qo'shiqda shaftolizor bog`ning maftunkorligi to'g`risida fikr yuritilgani kuzatiladi:

Bog' aylanib shaftoli,
Uchgan kimning kaptari.
Aytsam ado bo'lmaydi,
Vafosizning daftari.

Yana:

Daryoning naryog'ida shaftolizor,
Shaftolizor tagida qizlar bozor.
Otangiz berar bo'lsa biz xaridor,
Onangz tillaridan xudo bezor.

Mevalar bilan bog`liq motivlarning tub asosi ham qadim mifologik dunyoqarashga, odam daraxtdan paydo bo'lganligi, hosildorlik tangrisining mavjudligi haqidagi tasavvur va ishonch-e'tiqodlarga borib taqaladi.⁵³

Yorning bog`i bor ekan,
Bog`da **anori** bor ekan.
Yolg`iz deb ko'ngil bersam,
Bo'lak yori bor ekan.⁵⁴

Qo'shiqda bog` – turmush, oila; **anor** esa – oilali ayol, ona timsolida qo'llangani sezilib turibdi. Shuning uchun keyingi misralarda lirik qahramon yolg`iz deb guman qilgan sevgilisining turmushi bor, erli, farzandli ekanligini bilgach, uni ortiqcha bezovtalantirishdan o'zini cheklamoqda. Folkorda qizil rang ko'pincha ayolga nisbat beriladi. Shunga ko'ra, anorning ham qizil rangda bo'lishi, serdonaligi tufayli uni ayol ramzi sifatida qo'shiqlarga qo'shish qulay. Ba'zan anor tutqunlikda yurak-bag`ri qonga to'lган qizlar obrazini ramziy ifodalashga ham ko'maklashadi.

⁵³ Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. 2-изд. – М.: Политиздат, 1983. – С.110-139.

⁵⁴ Оқ олма, кизил олма, 28-бет.

O‘zbeklarning an'anaviy dunyoqarashlarida **anor** – oila, farzand va hosildorlik ramzi. Shuningdek, Anbar onaning sifatlashlaridan biri. Boshqa ko‘pgina daraxtlar kabi anor ham kult ahamiyatiga ega. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida anor poetik obrazi ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Quyidagi qo‘shiqda ham anor obrazi an'anaviy muhabbat va oila ramzi bo‘lib kelayotganini kuzatish mumkin:

Anori dona-dona,
Ishqingda men devona.
Gul sayliga kelganda,
Qilma meni begona.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida olcha obrazi ham kuzatiladi:

Katta ko’ldan naycha kesdim,
Yangi bog’dan olicha.
Men yorimni chaqiraman,
Ovozimning boricha.

Ko’rinadiki, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida olma, shaftoli, uzum, anor, behi, olcha va boshqa meva turlarining ko’rinishiga, holatiga, o‘ziga xos xususiyatiga hayotiy voqeа-hodisalarni, lirk qahramonning ruhiy dunyosini qiyoslash asosida parallelizm yuzaga keltiriladi.

Ba’zan qo‘shiqlarda ikki daraxt mevasini qiyoslash asosida asosiy g`oya ochib beriladi. Bunda qiyosiy manba sifatida tanlangan daraxtning tabiiy xususiyatlariga tayanib fikr yuritiladi.

Anoring dona-dona,
Ko’yingda man devona,
Anjirki bog’i lola,
Har yonda gulu lola.

Quyidagi misralar bahor darakchisi bo’lgan Boychechakni muqaddas sanab, uni «qurbanlik» tarzida tut yog`ochga osish, uni qilich bilan chopib, ustiga baxmal yopish irimlari haqida xabar beradi:

Boychechakni tutdilar,
Tut yog`ochga osdilar.

Qilich bilan chopdilar,

Baxmal bilan yopdilar.

Qo'shiqlarda **tut** – bag`rikenglik timsolida uchraydi. Hatto xalq orasida tut ta'rifiga bag`ishlab yaratilgan alohida qo'shiqlar ham uchraydi. Jumladan, "Tutday daraxt" qo'shig`ida shunday deyiladi:

Erta-oqshom olma pishar,

To`pir-to`pir tagiga tushar.

Unga bachalar chopishar,

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Anjir o`zi pastda bo`lar,

Yotarli eri xasta bo`lar.

Borar joyi rasta bo`lar,

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Zardolidir ismli behish(t),

O`tar-ketar bu uch oy qish.

Bandalar qilmasin nolish,

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Qarolidir donasi taxir,

Pishar hamma mevadan oxir.

Bachalar kelib menga gapir,

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Tagidan turib boqaman,

Ustingga chiqib qoqaman.

To`rttasi chodir tutadi.

Bittasi tovoqqa chopadi.

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Shoxlaridir har yoqqa,

Qizlar chiqdi sayrboqqa.

Qizlar donani chaqadi,

Tutmayizga xo`p yoqadi.

Sira bo`lmas tutday daraxt.

Qo'shiqda tut daraxti anjir, zardoli, qaroli singari boshqa mevali daraxtlar bilan qiyoslanmoqda va uning o'ziga xos tomonlari tasvirlanmoqda. Ayniqsa, tut pishig`ida chodir tutib tut qoqish, tutmayiz qilish, qish bo'yi tutmayiz odamlarga mador bo'lishi kabi real vogeliklar ifoda etilmoxqda.

Orqa yoqda bir bog'ing bor anjirli,
Qachon borsam eshiklaring zanjirli.
Oq siynamni ayoz urdi och endi,
Uyqu mendan mazalimi, kech endi.

Qo'shiqda anjirli bog` obrazi tasviri alohida e'tiborni tortadi. Qo'shiqda "Oq siynamni ayoz urdi och endi" misrasi orqali anjirning shamollagan kishiga davo bo'lish xususiyati bildirilmoqda. Shu orqali ishq dardiga mubtalo bo'lган oshiq o'zi uchun yorining visoli davo ekanligiga ishora qilmoqda.

Jiyda qiyosiy manba vazifasini o'tagan parallelizmli qo'shiqlarni ham ko'p uchratish mumkin. Ularda jiyda, odatda, salbiy va kinoyaviy obrazlar bilan parallel keltiriladi. Sababi, u suvsiz, tabiiy sharoiti og`ir erlarda o'sadi. O'zidan (ayniqsa, gullaganda) inson uchun xavfli efir moyi chiqarib turadi. Bargining rangi yashil bo'lmay, kulrangligi jihatidan sirli va g`alati qabul qilinadi. Inson jiydada yomon ruhlar, shaytonlar makon quradi, deb tasavvur qiladi. Shuning uchun jiyaning tagida uzoq o'tirish, uqlash taqiqanadi. Hatto "shayton bor joyga boshqa yovuz kuchlar kirolmaydi" degan qabilda jiydadan shoxachalar sindirib olinib" ko'z tegmasin" degan maqsad bilan uylarning peshtoqiga ilib qo'yiladi. Shu yo'l bilan yovuz kuchlar qo'rqitiladi.

Ariq bo'yida jiyda,
Jiydaning guli mayda.
Hammaning yori uyda,
Bizning qalamqosh qayda?

Qo'shiqda beburd, bevafo yor obrazi jiyda obraziga parallel holda gavdalantirilmoqda. Xalq fikrining badiiy – poetik bayoni uchun hamisha mos tushadigan, qulaylik tug`diradigan obrazlarni qiyosiy manba sifatida tanlab oladi.

Tanlangan qiyosiy manba lirik qahramon kayfiyatiga mos tushishiga ham e'tibor beriladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan qo'shiqda ham xuddi shunday manzarani ko'rish mumkin. Chunki jiyda mevasi sevib eyiladigan, shifobaxsh deb qaraladigan, ayni paytda, rangi, gulining hidi jihatidan uncha yoqtirilmaydigan daraxt bo'lgani kabi bevafo yor ham har qancha sevimli bo'lmasin, nafrat uyg`otishi ham mumkin.

Xalqimizda jiyda daraxti turli xil ma'nolarda tushuniladi:

- jiyda baxtli yashash, serfarzandlikka magik ta'sir qiladi;
- jiyda daraxtida turli yovuz kuchlar to'planadi;
- jiyda balo- qazolardan va yomon ko'zlardan saqlaydi.

Shu sababli kelinchak ketayotgan aravaga jiyda gullarini ilishgan. Yomon ko'zlardan va balo-qazolardan asrash maqsadida bolalarga jiyda danagidan yasalgan tumorlar taqish odatlari bugungi kungacha ham saqlanib qolgan.

O'zbek xalq qo'shiqlarida **yong'oq**, **bodom**, **do'lana** obrazlari uchraydigan misralar ham talaygina. Masalan:

Ot boyladim yong'oqqa,
Tobing bormi bo'ydoqqa.

Yana:
Qumrixon, qumrixon,
Yong'oq o'ynab yutadi.
Akalari kelganda,
Pashshaxona tutadi.

Ko'pchilik ot va daraxtlar haqidagi e'tiqodiy qarashlarga tayanib, o'z otini mevasiz daraxtga emas, mevali daraxtga bog`lashni lozim biladi. Birinchi qo'shiqda ana shu etnografik ma'lumotga ishora qilinayotgan bo'lsa, ikkinchi qo'shiqda "Yong'oq o'yini"ga e'tibor qaratilmoqda.

Bodom ko'rinishidan o'zbekona beshiklarga, qizlarning qovog`iga o'xshatiladi. Bodomdan xotin-qizlar surma tayyorlab, ko'zlariga surishadi. Beshik ustidan bodom sochqi qilishadi. Xullas, bodom bilan bog`liq shu kabi holatlar xalq

qo'shiqlarida bodom obrazi o'ziga xos o'rin tutishiga asos yaratgan. Xalq qo'shiqlarida u bilan bog`liq shunday misralar uchraydi:

Hovlingizda bodom bor,

Asta kiring odam bor.

Odam bo'lsa netadi,

O'z yo'licha ketadi.

Yoki:

Iroqi do'ppi tikmanglar,

Iroqqa ketar yigitlar.

Bodom do'ppi tikinglar,

Bog'da yursin yigitlar.

Do'lana obrazi ham o'zbek xalq qo'shiqlaridagi an'anaviy obrazlardan biridir:

Do'lananing ayrisi, omon yor,

O'rtog'imning maylisi, omon yor,

Maylisini qizitgan, omon yor,

Yolg'izgina qaynisi, omon yor.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq she'riyatida O'zbekiston hududida o'sadigan mevali va mevasiz daraxtlarning deyarli barchasi tilga olinadi, ammo olma, tut, jiyda, o'rik, anor, bodom, olcha kabi sermeva va serurug' daraxtlar juda faol qo'llaniladiki, genezisiga ko'ra bu xususiyat ham hosildorlik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'llanadi.

Daraxtlar bilan bog'liq poetik obrazlar, albatta, biror jihat bilan sevgi, oila, intim kechinmalar, farzand va farovon turmush g'oyalarini o'zida ifoda etadi. Bu xalq qo'shiqlari uchun an'ana tusini olgan o'ziga xos bir qonuniyatdir:

Eshik oldi **juft terak**,

Juft terakka suv kerak.

Sizday barno yigitga

Bizday suluv qiz kerak.

Bu qo'shiqdagi asosiy poetik obrazlardan biri juft terakdir. U orqali oila istagi g'oyasi anglashiladi. Qo'shiqda juft terak obrazi yigit va qiz juftligini, oila g'oyasini ifoda etadi. Shu tarzda qo'shiqqa xos badiiy parallelizm hodisasi hosil bo'lgan.

O'zbek xalq marosim folklori janrlariga diqqat qilsak, deyarli ularning barchasida daraxt obrazi yetakchi obrazlardan biri sifatida uchraydi.

Terak ekmay, tol eking,

Tolning soyasi yaxshi.

Juvon olmay qiz oling,

Qizning qilig'i yaxshi.⁵⁵

Yuqoridagi qo'shiqda, avvalo, terak va tol obrazlari parallelligi bilan juvon va qiz obrazlarining parallelligi alohida e'tiborni tortadi. demak, qo'shiqda daraxt va inson obrazi parallel sifatida tanlangan. Nega? Bu savolga javob berish uchun hodisaga **mif – marosim – folklor** poetik taraqqiyoti nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi. Buning sababi shundaki, misol keltirilgan qo'shiqda daraxt va inson obrazining parallel keltirilishiga asos bo'lган **birinchi omil** – bu qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvur-tushunchalari zamirida shakllangan ibtidoiy totemistik qarashlar bo'lsa, **ikkinchi omil** – shu totemistik qarashlar negizida kelib chiqqan marosim va urf-odatlardir. Zero, xalqimiz orasida terak va tol daraxtlari bilan bog`liq qator udumlarimiz mavjud.

O'zbek xalq qo'shiqlarida ramzlarning qo'llanilishini maxsus tadqiq qilgan folklorshunos Shomirza Turdimov tol obrazi – oshiq, er, erkak, hayot, taqdir, erkak muhabbati ramziy ma'nolarida kelishini ta'kidlaydi.⁵⁶ Darhaqiqat, tol – shoxlari har tomonga tarvaqaylab o'sgan sersoya daraxt. U o'sgan joyiga soya va ko'rк bag`ishlaydi. Soyasi tanlarga rohat, dillarga huzur baxsh etadi. Shu jihatdan, u jonboz oshiq yorni, jonkuyar erkak – oila boshlig`ini eslatadi. Shu o'xshashlik asosida parallelizm vujudga keltirilib, yuksak badiiyatga ega qo'shiq yaratilgan. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, qo'shiqdagi tol obrazi – oshiq, erkak

⁵⁵ Оқ олма, қизил олма, 54-бет.

⁵⁶ Турдимов Ш. Бирнинг минг жилваси. – Ёшлик. – 1987. – № 5. – Б. 70-71.

obrazini ifodalash uchun qo'llangan. Inchunin, terak obrazi ham xalq asarlarida, asosan, erkak, oshiq yigit obrazlarini ifodalab kelishi kuzatiladi. Ammo xalq terakni ko'pincha "qo'rqoq oshiq" timsolida epik talqin etadi. U haqdagi afsonalardan birida hikoya qilinishicha, bir yurtga dushman bostirib kelib, boylik va xotin-qizlarni o'lja sifatida qo'lga kirlita boshlabdi. Jang shiddatli tus olibdi. Shunda bir qo'rqoq yigit sevgan qizini dushman qo'lga olganini ko'rib tursa-da, o'z jonini aziz bilib, erto'laga kirib yashirinibdi. Qiz buni sezib, yigitni qarg`abdi. Qizning qarg`ishi bilan yigit terakka aylanib qolibdi. Terakning bargi shamol bo'lsa-bo'lmasa titrab, qaltirab turishi shundan deyiladi. Shu kabi epik talqinlar asosida hamda terakning faqat ko'kka qarab o'sishi, soyasiz bo'lishi tufayli xalq asarlarida u "maqtanchoqlik", "kekkayganlik", "qo'rqoqlik", "quruq savlatdorlik" kabi ramziy ma'nolarni tashib keladi.

Xullas, to'rtlikning dastlabki ikki misrasida tol va terak daraxtlariga xos xususiyatlar o'zaro qiyoslash asosida obrazlantirilib, shu orqali mantiqan inson obraziga parallel keltirilmoqda va keyingi misralardagi asosiy g`oyani – "oilada arning o'rni va roli" muammosini oydinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ya'ni terak baland, ko'rkam, purviqor bo'lsa-da, soya bermasligi; salgina shamolga dosh berolmay, yaproqlari doimiy shitirlab asabni buzishi sabab salbiy xususiyat kasb etsa, tol esa terakka nisbatan bo'yи past, beso'naqay bo'lishiga qaramay, ofatlarga birmuncha bardoshli, jazirama issiqlarda insonga soyabon bo'lganligi uchun ijobi ma'noda qabul qilinadi. Ma'lumki, hayotda ham xususiyati va sajiyasi jihatidan xuddi shunday erlar uchrab turadi. Shuni inobatga olib, qo'shiqda ayollar turmush qurish uchun yor tanlaganda hushyor bo'lishlari zarurligi, yigitning terakdek tik qomatiga, savlatiga mahliyo bo'lib, adashib qolmasliklari g`oyasi badiiy usulda ta'kidlanmoqda. Ayni paytda qo'shiqda er-yigitlar ham umr yo'ldoshi tanlaganlarida juvonni emas, pok va beg`ubor qizni tanlagani ma'qulligi uqtirilmoqda. Negaki, poklik – inson umrini obod etadi.

Tol ichidan tanlab olgan,

Tol chovkanim bolam, alla.

Gul ichidan iskab olgan.

Gulu rayhonim bolam, alla.⁵⁷

Misolda ona va bola tol hamda gulning parallelari, ona daraxt, farzand esa uning hosilasi sifatida talqin qilinmoqda. “Tarixiy ildizlariga ko‘ra, animistik tassavurlar, o‘simpliklar kulti bilan bog’langan gul poetik obrazi xotin-qizlar, balog’at, sevgi, farzand, baxt yo baxtsizlik, istak, armon, qayg’u, quvonch ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan”.⁵⁸

Tol – o’zbek xalq qo’shiqlarida eng ko’p obrazlantirilgan timsollardan biridir. Xalqning “Bola qochdi” o’yinida aytildigan quyidagi misralarda ham tol obrazi uchraydi:

Hovligacha mayda tol,
Mayda tolga payvand sol,
Olgan yoring yosh bo’lsa,
Aldab- suldab yo’lga sol.

Ushbu qo’shiqda “mayda tol” obrazi insonning yosh bosqichi – bolalikni o’zida ifoda etib kelayotir.

Maishiy turmush tarzimizda tol, terak yog`ochlari bilan yoki qamish va tol xivichlari bilan tom yopish odati bor. Shu real voqelikka ishora quyidagi misralarda kuzatiladi:

Quda xolam tomini
Toldan yopgan yor-yor.
Tol xivichdek qamishni
Qaydan topgan, yor-yor.

Shuningdek, cho’ponlar cho’pon tayog`ini ham ko’p hollarda toldan tayyorlashi uchraydi. Bunga ishora qiluvchi quyidagi misralar shu jihatni bilan e’tiborni tortadi:

Erta sahar boraman qo’yxonamga,
Kevaganim yarashar bo’yganimga.
Tol tayog’im tayanib, turib qolsam,

⁵⁷Oq olma, qizil olma. – B.201.

⁵⁸Musaqulov. O’zbek xalq lirikasi.

Suluv qizlar keladi uyginamga.⁵⁹

Quyidagi qo'shiqda mevali tut daraxti bilan, mevasiz tol daraxtlarini o'zaro qiyoslanayotgani ko'zga tashlanadi:

Qanday onam bor edi,
Tol yog'ochday soyalim,
Tut yog'ochday mevalim.
Soyasida yotganim,
Mevasidan totganim.(83)

Daraxtlar bilan bog'liq totemistik va poetik qarashlar nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyatning ibtidoiy dunyoqarashi uchun ham xos. Qadimgi YYevropa mifologiyasida ham hosildorlik ilohlari dastlab daraxt qiyofasida tasavvur etilgan. Er jinsli deb tasavvur qilingan hosildorlik ilohi Attisni Yevropa xalqlarida dastlab daraxtlar ruhi, so'ngra o'simliklar shohi, nihoyat insoniy qiyofa kasb etgan iloh darajasiga ko'targanliklari aytildi. Qadimiy suratda Attis qo'lida bug'doy boshoqlari va mevalar, boshida qarag'ay urug'lari, anor va boshqa mevalar bilan bosh kiyimidan bug'doy boshoqlari chiqib turgan tarzda tasvirlangan.

Voy jigarim, teragim,
Bor kunimga keragim.⁶⁰

Qo'shiqda terak obraz sifatidagina emas, ikkinchi misradagi "kerak" so'ziga qofiya so'z sifatida ham tanlangan. Xuddi shunday holat quyidagi misralarda ham kuzatiladi:

Bog'ing bo'lsa teraklik,
Imoratga keraklik.
Ering bo'lsa chiroylik,
Yur, bazmga kiraylik.⁶¹

Misoldagi terak, imorat bo'lajak oila g'oyasining ifodalaridir. Qo'shiqlarda terak va tol obrazlari, archa, chinor, qayrag'ochlardan farqli ravishda suv kulti

⁵⁹ Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Хрестоматия. – Т.: Алоқачи, 2008. – Б.73.

⁶⁰ Совет даври халқ кўшиклари. – Б.293.

⁶¹ Гулёр, 7-бет.

ta'siri tufayli ko'pincha suv obrazi bilan birga keladi, hayotda ham ko'pincha tol, teraklar ariqlar yoqasiga ekilgan.

Turkiy xalqlarda terakning ham kult obyekti bo'lganligini ko'pgina adabiyotlar tasdiqlaydi. Masalan, L.I. Klimovich Turkistonning II vodiysida Bo'g'ozterak nomli ziyoratgoh bo'lganligini aytadi. Farzandsiz ayollar bu terakka uch marta ta'zim qilishib, uch marta quchoqlashar va yana uch bor ta'zim qilib ketishar ekanlar.⁶² Shuningdek, boshqa ma'lumotlarga ko'ra, qadimda ayrim xalqlar majnuntolga ham farzand ato qilish qudratiga ega deb, e'tiqod qilishgan ekan. Marosim qo'shiqlaridagi kelin va kuyovga atalgan to'y olqishlarida ham majnuntol obrazi orqali mana shunga ishora mavjud:

Eshik oldi mavjim tol,⁶³
Mavjim tolga qo`ling sol.
Men fotiha aytayin,
Katta-kichi(k) qulq sol.
Atta bo`lsin, fatta bo`lsin,
Zuvalasi katta bo`lsin.
Tol chivig`i qildan bo`lsin.
Chilobchini puldan bo`lsin.

O'zbek xalq lirikasida tol poetik obrazi juda serqirra bo'lib, poetik ramz darajasiga ko'tarilgan. Lirk qo'shiqarda tolning ramz sifatidagi ahamiyati va badiiy-estetik vazifalarini ko'rsatib bergen. Sh. Turdimov uni tabiiy qiyos asosida ramzlashgan, deydi.

Tol poetik obrazi qadimiy inonchlar, daraxtlar kulti ta'sirida ramzga aylangan. Shu sabab tol qo'shiqlarda suv bilan bog'liq yoki uning aniqlovchisi bo'ladi va tol haqida so'z ketganda, odatda, majnuntol nazarda tutiladi. To'g'ri, majnuntol novdalarining sochga qiyoslanishi oddiy o'xshatish natijasi bo'lishi mumkin. Ammo bunda ham soch obrazining magiya bilan bog'likligini unutmaslik kerak. Qadimgi odamlarning soch magiyasi haqidagi qarashlari, hayotda tol

⁶² Л.И. Климович.Ислам. – М.:Наука, 1965.

⁶³ Majnun tol

daraxtining suv bo'yida o'sishlari kontagioz (muloqot) magiyasiga ko'ra, tolga ham magik funksiyalar yuklagan.

Qo'shiqlarda ota-onas, farzand, yor sochi, sevishganlarning kechinmalari ham tol obrazi vositasida ifodalanishi mumkin:

Mening dardimni sen tortgan,
Sening dardingni men tortgan.
Kechalari tol chiviqdek,
Ikkimiz chirmashib yotgan.

Lirikada biror so'z, poetik obraz ramz darajasiga yetishganda ham uning ma'lum bir matndagi ma'nosi cheklangan bo'ladi. Ammo xalq ongida o'sha so'z bilan bog'liq ko'plab tassavurlar va tushunchalar mavjud bo'ladiki, ular ma'lum bir matnni tinglaganda ham o'z ta'sirini ko'rsatib turadi.

Xalqda tol bilan bog'liq irim, odatlar ham ko'p. Tolda halinchak uchadilar, qizlar sochiga tol xivichlarini bog'laydilar, suv kabi tushda tol ko'rishsa, ham yaxshilikka ta'bir qiladidir va hokazo. Bu dalillar tol ramzining genezisida daraxt kultlariga inonch yotadi, deyishga asos bo'ladi.

Qadimgi odam o'zini ma'lum bir hayvon, o'simlik yoki daraxtdan tarqagan deb hisoblar ekan, buni "ibridoiy odam bola tug'ilishini ayolning tanasiga totemning kirishi, o'limini esa totemga aylanish"i orqali izohlagan.⁶⁴ Shu tariqa, u daraxtlarni ham o'ziga ajdod bilgan, ularga e'tiqod qo'ygan, sig`ingan. Ularni hamisha o'zi uchun yordamchi, ruhiy madadkor sifatida qaragan. Daraxtlarga bunday sig`inish odati dunyoning barcha xalqlari o'rtasida keng tarqalgan.

Obrazli parallelizmlar qiyoslanuvchi sub'ekt va qiyoslanuvchi obyekt qismlaridan iborat bo'lar ekan, unda qiyoslanuvchi sub'ekt – inson va uning ruhiy olami, qiyoslanadigan obyekt esa – turli predmetlar, tabiat hodisalari va manzaralari, o'simliklar, daraxtlar, gullar, hayvonlar, qush va parrandalar, osmon jismlari, vaqt o'lchovlari, rang-tuslar, meva turlari, ayrim sehrli raqamlar bo'lib keladi. Parallelizmlarning qo'shiqda badiiy-kompozistion va estetik ahamiyat kasb etishi, unda mana shu o'zaro qiyoslanuvchi manbalarning mos tushishiga

⁶⁴ Косвен О.Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. – Б.160.

bog`liqdir. Qiyosiy manbalar har bir xalqda uning yashash sharoiti va muhiti, urfodati, ruhiyati, dunyoqarashidan kelib chiqib tanlanadi. Shu boisdan parallelizmlarni o'rganish, ulardag'i ramziy tasvirlarning mohiyatini ochish har bir xalqning badiiy tafakkur tarixini, ularning tabiat va jamiyatga oid bilimlarini o'rganishda muhim o'rinni tutadi.

Obrazli parallelizm poetik obrazlilikning mifdan metaforaga o'tish bosqichida yuzaga kelgan va xalq tafakkuri bilan birga o'sib, badiiy jihatdan to'lishib borgan. Ma'lumki, odamzot dastlab o'zini ayrim o'simlik yoki daraxtdan, ba'zi hayvonlardan tarqagan deb anglab, ularni ilohiylashtirib, turli xil mifologik obrazlar yaratgan va ularni bevosita insonlar obrazi o'rnida qo'llayvergan. Keyinchalik bu hol badiiy maqsad kasb etib, badiiy ijodda ham mif – metaforaga aylangan. Ya'ni turli predmetlar, hayvonlar, daraxt va o'simliklar obrazini inson obrazi bilan psixologik jihatdan bog`lab, ikkinchisi o'rnida birinchisining bevosita keltirilishi tufayli badiiy obrazlilikda taraqqiyot sodir bo'lib, badiiy tasvirga o'tish yuz bergan. Badiiy obrazlilikdagi mifdan metaforaga o'tish bosqichida esa obrazli parallelizm kelib chiqqan. Biroq inson tafakkurining keyingi taraqqiyoti badiiy obrazlilik sohasida yana o'zgarishlar yaratdi. Badiiy ijodda inson obrazi o'rnida to'ppadan-to'g`ri qo'llanib kelayotgan turli predmetlar, daraxt va o'simliklar, hayvonlar, osmon yoritgichlari, maishiy turmush predmetlari obrazi endi inson obraziga nisbatan o'xshashlikda olinib, ularga insonning u yoki bu xususiyati singdirilib, ko'chirilib ifoda etila boshlangan. Badiiy obrazlilik taraqqiyotidagi bu holat mif – metafora – o'xshatish tarzida namoyon bo'ldi.

Badiiy tafakkurning keyingi taraqqiyot bosqichlarida inson o'zining turli predmetlar, daraxt va o'simliklar, hayvonlardan kelib chiqmaganini, ular aynan o'xshash emasligini, balki ularga nisbatan, qiyosan boshqa olam ekanligini aniqlagach, badiiy ijodda ham qiyoslash yuzaga keldi. Endi inson o'zining u yoki bu harakat-holatini biror o'simlik yoki hayvon, biror narsa harakat-holati bilan o'zaro qiyoslab ifodalaydigan bo'ldi.

Ramzlar, aslida, qadimgi odamlar tabiat hodisalarining ongsiz kuchlar ta'siri natijasida sodir bo'lishini tushunmay, ularni ilohiylashtirib, o'z nomi bilan

atashdan qo’rqib, o’zga nomlar – ramziy atamalar orqali atay boshlagan davrlarda paydo bo’lgan. Biroq ular hali badiiy mazmun tashiydigan ramzlar emas, hayotiy ehtiyoj tufayli hosil qilingan zo’raki, oddiy ramziy atamalar edi. Ammo keyinchalik ijtimoiy turmush o’zgarib, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi odamlarni o’z his-tuyg`ularini, ba’zi fikr-kechinmalarini yashirin ifodalashga majbur qila boshladi. Shundan so’ng odamlar o’z ruhiy kechinmalarini, holatlarini, turli qarashlarini ma’lum predmetlarga bog`lab, animistik va totemistik tasavvurlarining izlari sifatida saqlanib qolgan an’ana asosida ayrim daraxt, o’simlik va hayvonlar timsolini o’ziga qiyosan obrazlantirib, ramziy ifodalashga o’tganlar. Ular ko’pincha mavjud ijtimoiy tuzumningadolatsizliklarini, tartibsizliklarini ochiq-oydin aytolmaganda ichki tuyg`ularini ramzlar orqali ifodalashga intilganlar. Shu tariqa ramzlar “tayyor tushuncha”ni namoyon etib, an’anaviy sajiya kasb etdi, turg`unlashdi. Xalq qo’shiqlari tarkibiga tobora singib, ularning doimiy tarkibiy qismiga aylandi. O’z his-tuyg`usini ramz orqali ifodalash esa psixologik parallelizm hosil bo’lishida muhim ahamiyat kasbetdi.

Ramzlarni o’rganish – har bir ramziy obrazning kelib chiqishi o’z tarixiga, genetik asosiga ega ekanligini ko’rsatadi. Ammo ularning barchasining asosida inson hayoti bilan tabiat olamiga xos voqeа-hodisalarni, holatlarni o’zaro chog`ishtirish yotadi. Qo’shiqlarda lirik qahramonning kayfiyatiga, ruhiy kechinmasiga mohiyatan yaqin tabiat hodisalari ramzga aylanib keladi.

Ramziy obrazlar uzoq tarixiy-genetik asosga ega bo’lganligi tufayli “tayyor tushuncha”ni ifoda etadi. Ulardagi bu xususiyat to’rtlik shaklida rivojlangan lirik qo’shiqlarda katta ma’noni qisqa satrlarda umumlashtirib berish imkonini yaratadi.

Qo’shiqlarda chinor – chidamlilik, uzoq umr ko’rish, baquvvatlik; saksovul – issiq mehr tafti; yulg`in – yolg`izlik timsolida uchraydi.

Chinor shoxida fanor,

Fanor lopillab yonar.

Shu yorimning ko’zлari

Fanordan ravshan yonar.

Qo'shiqda keltirilgan chinor obrazi – uzoq umr ko'rish, fonar obrazi esa shu umrni yorug'lik bilan o'tkazish niyati bilan bog`liq.

Andijonda bir chinor,
Beklar otin qamchilar.
Yor degan tillaringdan,
Qandu novvot tomchilar.

Yoki:

Chinorning zinasi qirq zinapoya,
Turishing o'xshaydi osmonda oya.

Ma'lumki, ba'zi joy nomlari o'sha erda o'suvchi daraxt nomlariga bog`lab aytiladi: Mingchinor, Chinortepa kabi. Hatto Farg`ona vodiysi bilan Surxondaryo vohasida shunday chinorlar borki, o'tmishda ularning ichida maktab va idoralar tashkil etilgan. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi qo'shiqda chinori bilan shuhrat qozongan manzillar tilga olinayotir.

Bilagim sindi saridan,
Chinorimdan ayrilib.
Yuragim chiqdi qopidan,
Shunqorimdan ayrilib.

Yoki:

Teng-teng chinor teng chiqar,
Tepsingan otdan ter chiqar,
Tengqurlari kelganda,
Teng solib uydan kim chiqar.

Bu qo'shiqlarda navqiron, baquvvat farzandidan ayrilgan mushtipar ayolning fig`oni aks etmoqda.

Oyim chiqdi minorga,
Qo'l ko'tardi dinorga.
Dinorlari qo'yildi,
Besh yuz turgan chinorga.

Ushbu qo'shiqda chinorning besh yuz (inson yoshidan ko'proq) yashagani aytilmoqda. Hatto chinorlarning ming yoshgacha umr ko'rishi aniqlangan.

Ko'pincha chinor obrazi yig'i va yo'qlov qo'shiqlarida uchraydi. Ularda chinor xayoliy-mifologik timsollar, xayoliy-mifologik makonlar bilan bir qatorda tilga olinishi kuzatiladi. Negaki, chinor daraxti jannat daraxtlaridan biri sanaladi. Masalan:

Behishtdan chiqqan chinorga-ya,
Hurlar ham otin boylasin-e.
Bemahal ketgan onajonim-e,
Behishtlarga joylansin-e.⁶⁵

Jannat xalq tilida behisht deb yuritiladi. Diniy e'tiqodga ko'ra, gunohsiz hamda qalbi-yu tanasi pok kishilar o'limdan so'ng jannatga tushib, u erda abadiy hayot kechiradilar. Jannatda hech qanday tashvish, g`am, dard bo'lmaydi deya talqin qilinadi. Xayoliy uydirmalarga ko'ra, jannat so'lim, go'zal, tarovatli bog` ko'rinishida tasvir etiladi. Chinor uzoq yashaydigan daraxt sifatida jannat daraxti deb qaraladi.

Saksovul ham cho'l daraxtlaridan biri. Cho'l hududlarida yoki unga yaqin manzillarda yashovchi aholi o'rtasida yaratilgan qo'shiqlarda saksovul obrazi alohida o'rin tutadi.

Qoshing qora to'tiday,
Saksovulning o'tiday,
Ikkalamiz o'ynaylik,
Dalada o'sgan qo'ziday.

Saksovul daraxtining o'tini yaxshi issiqlik beruvchi yonilg'i bo'la oladi. Qo'shiqda unga xos shu tabiiy xususiyat orqali issiq mehr taftini ifodalash g`oyasi balqib turibdi.

⁶⁵ Тафаккур чечаклари. Ўзбек халқ қўшиклари. Тўпловчи ва нашрга тайёровчи М.Обидова. – Т.:Фан, 1992. – 44-б.

Qayrag'och (sada) – mustahkam va xalq aqidalarida ardoqli daraxt. Magik tafakkurga ko‘ra, qayrag'ochda halinchak uchgan o‘shanday sog’lom, uzoq umr ko‘rib, sersoya, ya’ni serfarzand bo‘ladi.

Qayrag'och obraqi juda ko‘p qo’shiqlarda uchraydi:

Eshik oldi qayrag'och,

Bolta ursam tegi tosh.

Bir yostiqda ikki bosh,

Ikkalasi qalamqosh.

Yana:

Oq g’o’za, malla g’o’za sug’uraylik,

Qayrag'och taglarida yig'ilaylik.

Qayrag'och qattiq yog’och, sinmas ekan,

Qarindoshga qiz bergen tinmas ekan.

Qayrag`och obraqi xalq yig`i-yo’qlov qo’shiqlari matnida ham uchraydi:

Tut yog’ochday mevali, onam,

Qayrag'ochday soyali, onam.

Mevasidan yeganim, onam,

Soyasida yotganim, onam.

Xalq tilida qayrag`och daraxtining nomi “qaraman” tarzida ham uchraydi:

Sarhovuz bo'yida bir tup qaraman,⁶⁶

Qachon bo'lsa shu yigitga boraman.

Yotgan paytlarimda yodimga tushsa,

Uxlay olmay ohlar urib turaman.

O‘zbek xalq lirkasida qayrag'och, tol, terak, chinor kabi mevasiz daraxtlar bilan bir qatorda archa daraxti nomi ko‘p tilga olinadi va u orqali ham sevgi, oila, farzand g’oyalari ifodalanadi:

Tog’dan archa tushadi,

Imoratga, yor-yor.

Biz ham O‘shga boramiz,

⁶⁶ qayrag'och

Ziyoratga, yor-yor.⁶⁷

Qo'shiqdagi tog' va archa genezisiga ko'ra, tog', homiy ruhlar, ajdodlar kulti bilan bog'liq. Shu sabab archadan qurilgan imoratda baxtli va to'kin hayot kechirish mumkin. O'shga ziyoratga borish ham ana shu maqsadga qaratilgan. Chunki tinch va osoyishta bo'lgan taqdirdagina ziyoratga borish mumkin.

Marosim qo'shiqlarida tilga olingan daraxtlar, odatda, ham magik, ham badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lishadi. Ammo davrlar o'tib, magik-mifologik qarashlar susayishi bilan badiiy-estetik ma'no kuchayib, ilk tarixiy asos unutiladi. Shu tufayli bugungi tinglovchi qo'shiqlarga asos bo'lgan siyrat ma'nolarni ko'pincha anglab yetmaydi. Ishqiy-maishiy mavzulardagi qo'shiqlarda daraxtlar obrazi sevgi kechinmalari, oilaviy turmushni poetik qayta ifodalashga xizmat qiladi.

Xullas, qo'shiqlarda daraxtlar obrazi personajlar ramzini berishda, ularning ichki ruhiy olami va holatini ifodalashda muhim o'rinni tutadi. She'riyatda inson obrazi va uning ruhiy olami o'simliklar, daraxtlar, gullar bilan qiyoslab parallel berilishi bejiz emas. Chunonchi, odamzod qadimda o'z ajdodlarini ayrim o'simlik va daraxtlardan, keyinchalik esa, ba'zi hayvonlardan tarqagan deb o'ylagan.

III.2. Xalq qo'shiqlarida hayvonlar va qushlar obrazi

Xalqning totemistik qarashlari natijasida kishilarning ma'lum bir hayvonlarni e'zozlashi, ulardan madad kutishi sabab qo'shiqlarda hayvonlarga murojaat motivlari alohida e'tiborni tortadi.

Xalq qo'shiqlarida "oq ot" obrazi alohida o'rinni tutadi va ko'pincha u orqali yuksak umidvorlik, baxtni kutish, ishonch ma'nolari ifoda etiladi. Chunki xalqimiz orasida oq ot – baxt keltiradi, degan aqida mavjud. Ayniqsa, bu tush ta'birlarida yaqqol seziladi. Jumladan, tushga oq otning kirishi, uni minish xosiyatli sanalib, bunday tush juda xayrli hisoblanadi.

Oq otingga – yo yol bo'layin,
Oq yuzingga – yo xol bo'layin.

⁶⁷ Гулёр, 151-бет.

Yoring bo'lmasa, yor bo'layin.
Endi bergen-o, bilaguzugimni.⁶⁸

Qo'shiqda oq ot yigitning do'sti, hamrohi, baxt keltiruvchi homiysi sifatida obrazlantirilmoqda. Otga xos shu sadoqatlilik tushunchasi xalq dostonlarida g`oyatda yuksak darajada epik talqin qilinganligi ma'lum. Shulardan xabardor ma'shuqa o'z yoriga xuddi uning otidek chin vafodor bo'lishga ont ichmoqda.

Xalqning shu kabi mifologik tasavvur-tushunchalari tufayli ba'zan xalq qo'shiqlarida qora otning o'lim keltiruvchi timsol sifatida obrazlantirilganligi kuzatiladi:

Olatog`ning boshidan ko'ch keladi,
Qora yo'rg`a selkillab bo'sh keladi.
O'z yoringdan ayrilish yomon ekan,
Qora ko'zdan mo'ltilab yosh keladi⁶⁹.

Tobut xalq ta'birida "yog`och ot", "cho'bin ot" deb yuritiladi. Chunki o'tmishda marhumni otga yuklab, tog`larga qo'yib yuborilgan. Ot ustidagi jasad tushib qolgach, ot yana ortiga qaytgan. Ammo bu otdan boshqa foydalanilmagan. Uni minish yomon irim qilingan. Bunday otlarning qulog`i va dumি belgi sifatida qirqib qo'yilgan. Keltirilayotgan to'rtlikdagi "qora yo'rg`a" obrazi tobut timsoliga ishora bo'lib, o'zida motam, g`am-anduh, armon, alamlı ayrılıq, judolik ma'nolarini ifodalab kelmoqda.

Ba'zi qo'shiqlarda qora ot birikmasi o'z ma'nosida uchraydi va ot turlaridan birini anglatishi kuzatiladi:

Qora otin qotiray,
Izini qumga botiray.
Shunday yorim ul tug`sа,
Oldimga olib o'tiray.⁷⁰

Qo'shiqda qora tusli ot haqida gap borayotganligini ilg`ash qiyin emas. Lirik qahramon o'g`il tug`ib bergen yorini otining oldiga mindirib yurish orzusida. Chunki xalqda "Ot – yigitning qanoti", "O'g`il – otaning davomchisi" degan naqllar bor.

Qadimgi turkiylarning o'z turmush tarzida otlardan ko'p foydalanishi unga nisbatan ilohiy homiy deb qarashga olib kelgan. Odamlar otni ucha oladigan,

⁶⁸ Шода-шода марварид. Ўзбек халқ қўшиклари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э.Очилов. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.45.

⁶⁹ Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга таёrlовчи О.Сафаров. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.23.

⁷⁰ Хоразм халқ қўшиклари, 54-б.

gapira oladigan, insonni tushuna biladigan mo’jizaviy mavjudot sifatida qarab, ot obrazini muqaddaslashtirishga, uni totem darajasiga ko’tarishga intilganlar. Natijada ot bilan bog`liq e’tiqodiy qarashlar silsilasi vujudga kelgan. Shunday e’tiqodiy qarashlar ta’sirida chorvachilik bilan shug`ullanuvchi turkiy xalqlar orasida oilada o’g`il farzand tug`ilsa, albatta, unga atab ot boqishgan. Yuqoridagi parchada ham “qora ot” shu ijobiy xususiyatlarni o’zida jamlab kelgan holda lirik qahramonning yoshi navqironligini, umid bilan o’g`il farzand kutayotganligini ifodalamoqda.

Xalq e’tiqodiga ko’ra, “oq tuya” timsolan arvoх obrazini ifodalab keladi. Tushga “oq tuya” kirsa, arvoх tushga kirdi, deb is chiqariladi yoki sadaqa qilinadi. Hatto tuya xalq motam qo’shiqlarida to’ppadan-to’g`ri “arvoх” yoki “o’lim” ramzida keltiriladi:

Oq tuyaday oqarib,
Eshigimda cho’kdingmi?
Obinayson suvidek,
Ko’z yoshimni to’kdingmi?⁷¹

Keltirilgan to’rtlikda “oq tuya” o’lim obrazini ifodalab kelayotir. Negaki, bu obrazning kelib chiqishi ibtidoiy motam marosimlari genezisi bilan chambarchars bog`liq. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, qadimda murdani ho’kiz yoki tuya tulumiga o’rab, jasadning suyagini go’shtidan tozalatish maqsadida ochiq maydonlarga, cho’lu biyobonlarga qo’yib kelish udumi mavjud bo’lgan. Bunda tulum yovvoyi hayvonlarning marhum suyaklarini har tomonga sochib, titib yuborilishining oldini olgan. Shu holat odamlarning xotirasida tuyani o’lim, arvoх sifatida obrazlantirishga ta’sir ko’rsatgan.⁷²

Ba’zi qo’shiqlarda “oq tuya” tobut ramzini ham ifodalab keladi. Negaki, o’tmishda marhumni oq otga yoki oq tuyaga bog`lab mindirib, dafn qilinadigan joygacha olib borganlar. Keyin uning ustidan o’likni tushirib olib dafn etganlar. Bu hayotiy voqealar talqini hozirgacha ayrim afsonalarda uchraydi. Bunga “Boboyi Kabir”, “Bibi Zubayda qabristoni” afsonalari syujetini misol bo’la oladi. Ularda oq tuya kelib cho’kkan joyda qabriston paydo bo’ladi.⁷³ Xullas, xalq orasida tuya arvoх sifatida qaralishi tufayli afsonalarda ko’pincha u qabristonlar kelib chiqishi

⁷¹ Ипак йўли афсоналари. (Жой номлари билан боғлик афсоналар). Тузувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Жўраев. – Т.: Фан, 1993. – Б.102.

⁷² Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009.

⁷³ Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросими қўшиклари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи М. Жўраев. – Т.: F.F.улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. –160 б.

bilan bog`lab talqin qilinadi. Keyinchalik shu epik badiiy an`ana xalq she`riyatida u bilan turg`un ramziy obrazlar kelib chiqishiga asos bo`lgan.

Oq ilon o`zbek xalq qo'shiqlarida eng ko'p uchraydigan ramziy obrazlardan biridir. Uning kelib chiqishi xalqning oq ilonga nisbatan e'tiqodiy qarashlar bilan bog`liq. Ma'lumki, xalqimiz oq ilonni mo''tabar sanaydi. Chunki oq ilon – ilonlar shohi deb qaraladi va kimki uning oyoqlarini ko'rsa, dunyodagi eng baxtli odam bo'larmish, deya e'tirof etiladi. Xonadonda, hovlida oq ilon paydo bo'lishi qutbaraka va yaxshilikdan dalolat beradi, deb hisoblanadi. Shu sababli Farg`ona, Buxoro, Xorazmda oq ilonni ko'rgan kishilar uning ustiga un sepganlar, kosada sut qo'yanlar. Buxoro viloyati aholisi orasida boshida qora chizig`i bo`lgan "kokilli oq ilon"ni kim ko'rsa, uni momolar arvohi hisoblab, ustidan un sepadilar.⁷⁴ Oq ilonni o'ldirish og`ir gunoh hisoblangan. Chunki oq ilon ko'rinishida musulmon parilari yashaydi, deya tasavvur qilingan. Xalq qo'shiqlarida "bevafo yor" obrazi ko'pincha "oq ilon" timsolida aks ettiriladi:

Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani!?
Sen meni yomon deding,
Yaxshini topganing qani?!⁷⁵

Ilon har qancha muqaddas bo'lmasin, inson hamisha uning chaqishidan ehtiyyot bo'lishga harakat qiladi. Chunki ilon zahri inson boshiga o'lim soladi. Oq ilonga aloqador ana shu dualistik munosabat xalq qo'shiqlarida oshiq uchun aslida qadrli bo`lgan ma'shuqaning bevafoligi tufayli dilozor va sitamkorligini ta'kidlashga muqobil ramziy obraz sifatida tanlanishiga asos bo`lgan.

Inson tushiga oq ilonning kirishi xosiyatsiz sanalib, bundan cho'chiydarlar. Chunki oq ilon ko'pincha "arvoh", ba'zan "ganch – oltin – boylik" deya ta'birlanadi. Ushbu qo'shiqda "oq ilon" obrazi o'z yorini yomon deb tashlab ketib, unga nisbatan bevafolik va xiyonat qilgan nomard oshiq timsolini ifodalab kelmoqda. Ko'zga ko'rinas bo'lib ketganligi, dom-daraksizligi tufayli lirik qahramon uni o'liklar mulkinining, ya'ni ko'zga ko'rinaslar olamining ilohiga qiyoslayotir. Sevgilisining bu sovuq qiliqlarini kechira olmayotgan ma'shuqa uni sovuq ilonga tenglashtirmoqda. Chuqur kinoya va pichingga yo'g`rilgan bu qo'shiqda oq ilon – bevafo yorning oydindan, ya'ni yaxshi va baxtli, farovon

⁷⁴ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.28.

⁷⁵ Шода-шода марварид, 171-б.

turmushdan ongli ravishda voz kechib, zimiston makondan, ya’ni baxtsiz go’shadan qo’nim topganligiga achinish bildirilmoqda. Bu bilan yaxshining qadriga etmagan, albatta, yomonga tutilishi boshqalarga hayotiy saboq qilib ko’rsatilmoqda.

Oq saroydan bir qiz chiqdi,
Oq ilonday to’lg`anib.
Shu’lasi olamga urdi,
Qoldim tikandek sarg`ayib.⁷⁶

Qo’shiqda “oq saroy” obrazi – keng, go’zal, baxtlar makoni, tinch-xotirjam joyning ramziy timsolini anglatib kelayotir. Oq saroy birikmasidagi “saroy” so’zida joy ma’nosidan tashqari, oq rangning baxt-saodat ramzi sifatidagi manosi ham yashiringan. “Oq ilon” timsoli esa “bevafo yor”, lirik qahramonga jafolar etkazgan ramziy obraz sifatida gavdalanmoqda.

O’zbek xalq allalarida oq bo’taloq timsoli farzand obrazini o’zida jonlantirib kelishi kuzatiladi:

Aylanayin, oq bo’tam, alla-heya,
Oq beshikda yot, bo’tam, alla-heya.⁷⁷

Xullas, xalq qo’shiqlarida hayvon va jonzotlarning obrazlari juda ko’p uchraydi. Ularning har biri o’z kelib chiqish tarixiga egaligi, an’anaviyligi, ma’nomazmuni bilan e’tiborni tortadi.

Xalq qo’shiqlarida turli xil parranda-yu qushlar ham turfa qiyofada poetik sifatlanib, ramziy obraz hosil qilishi kuzatiladi. Ularning obrazlantirilish asoslari esa, albatta, qadimgi insonlarning totemistik qarashlariga borib taqalishini inkor qilib bo’lmaydi.

Oqqina kaptar boradi joyiga,
Ko’p oshiq bo’lmang birovning yoriga.
Ko’p oshiq bo’lgan birovning yoriga,
Osiladi oqposhshoning doriga.⁷⁸

Yoki:

Oq kaptaru ko’k kaptar,
Ho-ho yallalar.
Osmonda nima gaplar,

⁷⁶ Келиной кўшиқлари, 54-b.

⁷⁷ Алла-ё алла, 69-b.

⁷⁸ Shu kitob, 72-b.

Tarallo yallalar.⁷⁹

Bu qo'shiqlardagi "oq kaptar" birikmasida oq epiteti kaptarning tinchlik va omonlik elchisi sifatidagi fazilatlarini uqtirishga xizmat qilgan. Zero, kaptarlar – qadimda xat tashuvchi, xabar keltiruvchi vazifasini bajargani bois shu xilda ardoqlangan. Sifatlovchi ranglar esa shu ma'nolarni yanada kuchaytirgan.

Oqqina kaptar kelib,
Uchadi toming bilan,
Quvnab-quvnab ishlaymiz,
Vatanim, noming bilan.⁸⁰

Bu qo'shiqda oq kaptar obrazi tinchlik ramzini ifodalab kelmoqda. Oq kaptarning tinchlik ramzida keltirilishi qator xalqlar og`zaki va yozma she'riyatiga xos xususiyatdir. Bu o'rinda oq rang gammasi tinchlik ma'nosini ifodalab kelgani bunday sifatlashga asos bo'lgan.

Qoshi qora, yuzi oqning
Man yori bo'lsam kerak.
Ko'kkina kaptar bo'lib,
Ko'ksida jon bersam kerak.⁸¹

Tahlilga tortilayotgan bu to'rtlikning uchinchi misrasidagi "ko'k kaptar" ramzi oshiq yigit timsolini o'zida gavdalantirmoqda. Chunki qadimgi insonlar joni uzilgan odamning ruhi og`zidan qush (ko'pincha ko'k kaptar yoki musicha) ko'rinishida uchib chiqib ketadi, degan diniy-mifologik qarashga ega bo'lgan. Shuning uchun mazkur qo'shiqda lirik qahramon yorga etishish mashaqqatini jon bermoq holatiga mantiqan tenglashtirar ekan, o'z holatini ko'k kaptar timsolida ifodalashga urinadi.

Qora-qora qarg`alar, mayda-yo mayda,
Qorni ko'rsa yo'rg`alar, mayda-yo mayda.
Uying kuygur darg`alar, mayda-yo mayda,
Xirmonni ko'rsa yo'rg`alar, mayda-yo mayda.⁸²

Bu qo'shiqda "qora-qora qarg`a" timsoli mehnat qilmay, ayni don yig`ib olinadigan paytda paydo bo'ladigan tekintomoqlar, dehqonni talab, hosilni nimtay qiladigan soliqchi-yu ijara chilarning umumlashma ramziy obrazidir.

⁷⁹ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиклари, 113-б.

⁸⁰ Оқ олма, қизил олма, 91-б.

⁸¹ Ой олдида бир юлдуз, 130-б.

⁸² Халқ оғзаки поэтик ижоди// Мехнат қўшиклари. – Т.: Шарқ, 2001. 176-б.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Ildizi totemistik qarashlar bilan bog`liq o'simlik, daraxt, hayvon, hasharot, qush va parranda obrazlari yoki ularning qismlari (ya'ni daraxt shoxi, bargi, guli, mevasi, qush qanoti, pati singari va hokazolar) o'zbek xalq qo'shiqlarida turfa xil va jilolarda talqin etilgani kuzatiladi.
2. Ular an'anaviy, ayni paytda, turg'un ramziy obraz sifatida kelishi bilan e'tiborni tortadi.
3. Xalq qo'shiqlarida o'simlik, mevali darxt obrazlari orqali hosildorlik va serfarzandlik tushunchalari ilgari suriladi.
4. Xalq lirikasida totemizm bilan bog`liq obrazlar biror ochiq yoki siyrat ma'nosi bilan ko'pincha sevgi, oila, farzand, hosildorlik g`oyalari, maishiy turmush bilan bog`lanadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Xalqimiz orasida mifologik ishonchlar bilan bog`liq qarashlar saqlanib kelayotgani kuzatiladi. Hatto folklor asarlarida bevosita uning badiiy ifoda etilishiga guvoh bo`lish mumkin. Jumladan, o`zbek xalq qo'shiqlarida turli o'simlik, daraxt, gul, hayvon, hasharot, qush va parrandalarning turlari o'ziga xos obrazlantirilib, muayyan ramziy-timsoliy ma'nolarni anglatib kelishi ko'zga tashlanadi.

2. O`zbek folklorshunosligida totemizm bilan bog`liq mifologik qarashlarning xalq asarlaridagi badiiy talqini, ularning kelib chiqish ildizlari, mazmuni va axloqiy-e'tiqodiy mohiyati bevosita xalqimizning madaniy turmush tarzi, undagi o'rni, ayrim marosimlar bilan bog`liq ekanligi anglashiladi.

3. Totem obrazlarning rang vositasida farqlanib kelishi ham ko'zga tashlanadi. Ramziy poetik birikmalar ko'rinishida ifodalanib keladigan oq gul, qizil gul, oq qo'y, oq tuya, qora qo'y, qora qo'zi, oq terak, ko'k terak, qora tol, yao'il novda va hokazolarning aksariyati oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual predmetlar ekanligi bilan diqqatni tortadi va ular turli ruhiy vaziyatdagi holatini bildirib keladi.

4. Teran xalqchillik bilan ajralib turgan o`zbek xalq og`zaki ijodining go`yalari xalqning kundalik maishiy turmushi va ma'naviy hayoti bilan uzviy bog`langan. Ularda insonning yuksak tuyg`ulari, pok sevgisi, sadoqatlilik, do`stlik kabi fazilatlari yuksak darajada kuyylanadi. Qo'shiqlar tarkibida uchraydigan obrazlar esa turli insoniy g`oyalarni izohlashning muhim vositasi hisoblanadi.

5. Har bir xalq o'ziga xos maishiy turmush tarzi bilan ajralib turadi. Xalq asarlarida bu o'ziga xoslik badiiy shaklda namoyon bo'lishi bilan e'tiborni tortadi. Ularda epik an'anaga xos motivlar, obrazlar uchrashi diqqatga sazovordir. Jumladan, o`zbek folklori obrazlar tizimida totemizmga aloqador obrazlar talqini alohida o'rin tutadi. Ana shunday obrazlardan bir guruhi terak, tol, chinor, archa, majnuntol, sarv, qarag`ay, yong`oq, tut, jiyda va hokazo daraxt turlaridan iborat. Xalqimiz orasida uzoq zamonlardan beri daraxtlar bilan aloqador tushunchalar,

an'analar saqlanib kelayotir. Ular qadimiyligi, an'anaviyliги, o'zida turli inonch-e'tiqodlarga oid dalillarni saqlab qolganligi bilan ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Ularda daraxtlar timsoli o'ziga xos ramziy ma'no-mazmun tashib keladi.

6. Hayvonot olami bilan bog`liq totem obrazlar ham xalq epik va lirk asarlarida keng uchraydi. Ularning tasviri va talqinida ajdodlarimizning totemizm bilan bog`liq qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalari asos bo'lganligi yorqin seziladi.

7. Totemistik qarashlar bilan aloqador obrazlarning genetik ildizi juda murakkab. Chunki ular tarkibida mifologik kultlarga ishonch saqlanib qolgan. Ular ibtidoiy insonlarning totemistik tasavvur-tushunchalari, o'simlik va hayvonot olami bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlari asosida yaratilgan.

8. O'simlik va hayvonlar, gullar va qushlar bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlar ildizi islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalar, aniqrog`i, totemistik tushunchalarga borib taqaladi. Ularning ruhlariga ishonch xalqimiz orasida qadimdanoq bir muncha keng va muayyan yaxlit tizim ko'rinishida tarqalgan.

9. Ibtidoiy davrlarda o'simlik va hayvon kultiga ishonch-e'tiqodlar asosida shakllangan ayrim marosimiy an'analar, urf-odatlar hozirgi zamon kishisining estetik talablariga to'la javob berishi tufayli hamon yashab kelmoqdaki, shuning uchun ularni har tomonlama o'rganish, o'ziga xos xususiyatlari, folklorining estetik ta'sir kuchini ochib berish g`oyat muhim masalalardan biridir.

10. Totemizmga aloqador obrazlar muayyan badiiy tizim shakliga ega. Ularning o'z mazmun-mohiyati, estetik vazifalari, badiiy xususiyatlari, ramziyliги mavjud. Bunday obrazlar, odatta, xalq lirk va marosim qo'shiqlarida ko'p uchraydi. Ular folkloarning badiiyatini yanada boyitgan. Ular aks etgan terma va qo'shiqlar, afsona va ertaklar alohida e'tiborni tortadi.

11. Totemizm bilan bog`liq an'analarda insonni e'zozlashdek buyuk tushuncha, axloqiy g`oyalar ilgari suriladi. Ana shu axloqiy-ta'limiy mazmundorligi tufayli totem ramziy obrazlari davrlar sinovidan o'tib, to hozirgacha yashab kelmoqda.

12. Tabiat go'zalligini madh etish, olqishlash va bu go'zallikni qadrlash, asrab-avaylash maqsadida shakllangan totemizm bilan bog`liq obrazlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular har kishini tabiat jonkuyari, unga xos go'zalliklarining himoyachisiga aylantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni uyg`unlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – 174 б.
2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль. – № 28.
4. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. – 2017 йил, 4 август. – №32 (4431). – Б.1-4.

II.Darslik, o’quv qo’llanmalar, monografiya va risolalar:

5. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. Т.1. – Т.: Фан, 1968. – 468 б.
6. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: «Шарқ», 2001. – 172 б.
7. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 316 б.
8. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
9. Аминов Б.М. Этнография оламига саёҳат. – Т.: Фан, 1988. – Б.29-35.
- 10.Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
- 11.Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – 208 б.
- 12.Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. – М.: Искусство, 1971. – С.297-366.

- 13.Бойс М. Зороастрйцы: Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987. – 302 с.
- 14.Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – 340 с.
- 15.Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Т.: Фан, 2005. – 160 б.
- 16.Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.
- 17.Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 121 б.
- 18.Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сехрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1993. – 102 б.
- 19.Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б.
- 20.Жўраев М. Фольклоршунослик асослари: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
- 21.Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2014. – 308 б.
- 22.Зеленин Д. Тотемы–деревья в сказанных и обрядах европейских народов. – М.–Л., 1937. – 77 с.
- 23.Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 190 б.
- 24.Климович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – 335 с.
- 25.Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура.–М.: ИПЛ, 1991. – 525 с.
- 26.Mirzayev T., Safarov O., O’rayeva D. O’zbek xalq og’zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: “Aloqachi”, 2008. – 560 b.
- 27.Мифология Древнего Мира /Сборник статей. – Л.: Наука, 1977.–456 с.
- 28.Муродов М., Ҳакимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. 1-китоб. – Т.: Мехнат, 2001. – Б.35-36.
- 29.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси тарихий асослари, бадиияти. – Т.: Фан, 1995. – 166 б.
- 30.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

- 31.Наврўз. (Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар). Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – 100 б.
- 32.Нурмонов Ф. Ўзбек фольклорида Хизр образи. – Т.: Фан, 2007. – Б.35.
- 33.Путилов Б.Н. Миф – обряд – песня Новой Гвинеи. Исследования по фольклору и мифологии Востока. – М.: Наука, 1980. – 384 с.
- 34.Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 132 б.
- 35.Раҳмонова М. Миф, афсона ва талқин. – Навоий, 2015. – 102 б.
- 36.Сайдов М. Озарбайжон мифик тафаккурининг қайнотлари. – Баку: Ёзувчи, 1983. – 328 б.
- 37.Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.
- 38.Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – 222 б.
- 39.Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 175 б.
- 40.Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 2009. – 248 б.
- 41.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Т.: "Musiqo", 2010.–367 b.
- 42.Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.154-222.
- 43.Тайлор Э.Б. Первобытная культура.– М.: Политиздат, 1989.– 573 с.
- 44.Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛ, 1990. – 576 с.
- 45.Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. 2-е изд. – М.: Политиздат, 1983. – 704 с.
- 46.Худойқулова Л. Сурхон воҳасида бола туғилиши ва бешик даври маросимлари фольклори // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1-китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2006. – Б. 87-94.
- 47.Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.: Насаф, 1999. –172 б.
1. Эшонқул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – 121 б.
- 48.Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – 285 б.
- 49.Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

- 50.Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 190 б.
- 51.Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Шарқ, 1992. – 496 б.
- 52.Ғафуров Ф. Удумларда халқ қалби. – Т.: “Ёш гвардия”, 1986. – 192 б.

III. Ілмий журнaldagi maqolalar

- 53.Rustamova G. O’zbek bolalar erkalamalarida hayvonlar obrazi / Filologiya masalalari. 11-juzv. – Toshkent: Navro’z, 2017. – B.123-126.
- 54.Rustamova G. O’zbek xalq qo’shiqlarida terak obrazi / Tafakkur va talqin. – Buxoro, 2018. – B. 95-98.
- 55.Турдимов Ш. Лирик қўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1982. – №3. – Б.16-19.
- 56.Турдимов Ш. Ранго-ранг дунё. – Ёшлиқ. – Тошкент. – 1987. – №8. – Б. 60-62.

IV. Badiiy adabiyotlar:

- 57.Аллаё алла. Тўплаб, нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 158 б.
- 58.Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
- 59.Асотирлар ва ривоятлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 128 б.
- 60.Бойчечак. Болалар фольклори. Мехнат қўшиқлари. Кўп томлик. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров ва К.Очилов. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 336 б.
- 61.Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мұхаррир, 2010. – 190 б.
- 62.Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: «Бухоро», 2004. – 126 б.
- 63.Гулёр. Фарғона халқ қўшиқлари. Тўпловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 250.

- 64.Келиной қўшиқлари. Халқ қўшиқлари ва терминлари. Ёзib олувчи ва нашрга тайёрловчи О.Собиров. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 240 б.
- 65.Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросими қўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи М. Жўраев. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.
- 66.Остонаси тиллодан. Тўй қўшиқлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Мирзаева, А.Мусақулов. – Т.: Фан, 1992. – 112 б.
- 67.Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
- 68.Тафаккур чечаклари (Ўзбек халқ қўшиқлари). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.Обидова. – Т.: Фан, 1992. – 78 б.
- 69.Таъбирнома. Тушларнинг илмий асосланган талқини. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1996. – 84 б.
- 70.Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга таёрловчи О.Сафаров. – Т.: Маънавият, 2000. – 160 б.
- 71.Ўзбек халқ мақоллари. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 512 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

- 72.Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Т., 2005. – 44 б.
- 73.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Т., 1995. – 41 б.
- 74.Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 2007. – 23 б.
- 75.Раҳмонов Т.Л. Қадимги мифлар ўзбек фольклори эпик мотивларининг ўзаги сифатида: Филол. фанлари номз. дисс. – Т., 1997. – 130 б.

76. Ўраева Д.С. Ўзбек халқ лирик қўшиқларида паралелизмларнинг
характери ва бадиий-композицион вазифалари: Филол. фан. номз.
...дисс. авторф. – Т., 1993. – 20 б.

77. Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими фольклорининг генезиси, жанрий
таркиби ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Т., 2005. –
38 б.

VI. Internet saytlari:

78. www.ziyouz.com

79. www.google.com

80. www.uzA.uz

VII. Ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari:

81. www.scopus.com

82. www.sciencedirect.com